

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!



VATANPARVAR

Gazeta 1992-yilning
24-iyunidan chiqa
boshlagan

2025-yil 19-dekabr
№51 (3165)

MILLIY ARMIYA — ONA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

y.mv-vatanparvar.uz



VATAN — MUQADDAS, UNI HIMOYA QILISH SHARAFLI BURCH!

IJTIMOIIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

t.me/mv_vatanparvar_uz
vatanparvar-bt@mail.uz
facebook.com/mudofaavazirligi



t.me/mudofaavazirligi
instagram.com/mudofaavazirligi
youtube.com/c/uzarmiya



“O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi farmoniga muvofiq, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi tasdiqlandi. Mazkur strategiya O‘zbekistonning asosiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab beruvchi muhim hujjat hisoblanib, 5 ta ustuvor yo‘nalish doirasida 100 ta maqsadga erishishga qaratilgan. Uning maqsadlari va samaradorlik ko‘rsatkichlari aholi tomonidan oson qabul qilinib, tushunish uchun qulay shaklda bayon etilgan.

Mamlakatning barqaror va inklyuziv rivojlanishini ta‘minlash maqsadida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ustuvor yo‘nalishlarining beshinchisi “**Xavfsiz va tinchliksevar davlat**” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish” deb nomlanib, uning mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish bo‘yicha islohotlarga bag‘ishlangan ikkinchi qismi 5 ta maqsad, 16 ta samaradorlik ko‘rsatkichlarini qamrab olgan.

MAMLAKATIMIZ XAVFSIZLIGI VA MUDOFAA SALOHIYATINI KUCHAYTIRISH BO‘YICHA ISLOHOTLAR

96-maqsad.

Fuqarolarning axborotni erkin izlash, olish va tarqatishga doir huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini yanada kuchaytirish.

Samaradorlik ko‘rsatkichlari:

Milliy axborot maydonida qonunchilikka rioya etilishini ta‘minlash, axborotdan foydalanish madaniyatini yuksaltirish hamda aholini yot va destruktiv ma‘lumotlar ta‘siridan himoya qilish, radikallashtirishning oldini olish.

Internet jahon axborot tarmog‘idan to‘siqlarsiz

foydalanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, milliy internet makonida kiberxavfsizlikni ta‘minlash hamda fuqarolarning internetdan foydalanish borasidagi savodxonligini oshirish.

97-maqsad.

Jahonda sodir bo‘layotgan murakkab global jarayonlarni inobatga olgan holda Qurolli Kuchlarning qudrati, mamlakatning mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yanada oshirish.

Samaradorlik ko‘rsatkichlari:

Qurolli Kuchlarning raqamli salohiyatini oshirish va axborot xavfsizligini ta‘minlash, harbiy xizmatchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish borasidagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish.

Qo‘shinlarning jangovar ruhi va salohiyatini yuksaltirish, zamonaviy jang va harbiy mojarolar hamda xorijiy armiyalarning ilg‘or tajribasini o‘rganish asosida qo‘shinlarning jangovar shayligi va mahoratini rivojlantirish.

Qurolli Kuchlar kuch tuzilmalari bilan hamkorlikni kuchaytirish, birgalikdagi harakatlarning samaradorligi va muvofiqlashganlik darajasini oshirish.

Yuqori malakali harbiy kadrlarni tayyorlash tizimini muntazam

ravishda takomillashtirib borish, o‘quv jarayonlariga harbiy tayyorgarlikning zamonaviy usullarini keng joriy etish.

98-maqsad.

Favqulodda vaziyatlar va global iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq aholi hayotiga xavf soluvchi ofatlarning oldini olish.

Samaradorlik ko‘rsatkichlari:

Xalqaro seysmik kuzatuvlar global tizimi bilan integratsiyalashuv asosida respublikada kuchli zilzilalar haqida barvaqt ogohlantirish milliy tizimini joriy qilish.

Suv omborlari va boshqa xavf darajasi yuqori bo‘lgan obyektlarda favqulodda vaziyatlar monitoringi va ularni oldindan prognoz qilish tizimini yaratish.

Yagona global xavfsizlikni ta‘minlash, favqulodda vaziyatlarda harakatlanish salohiyatini kuchaytirish va mintaqaning barcha davlatlari bilan tezkor axborot almashish, qo‘shma o‘quv mashg‘ulot o‘tkazish kabi yo‘nalishlarda hamkorlikni chuqurlashtirish.

99-maqsad.

Chegaralar xavfsizligini mustahkamlash.

Samaradorlik ko‘rsatkichlari:

Davlat chegarasini qo‘riqlash tizimiga zamonaviy texnologiyalar, kommunikatsiya vositalari va texnik

(muhandislik) inshootlarni keng joriy qilish.

Davlat chegarasi xavfsizligini ta‘minlash jarayonini sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda yanada avtomatlashtirish.

Chegara buzuvchilari harakatlarini sustlashtirish va qiyinlashtirish jihatdan jihozlanganlik darajasini oshirish.

100-maqsad.

Jamiatda millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini rivojlantirish.

Samaradorlik ko‘rsatkichlari:

“Yosh kitobxon” tanlovini qo‘shimcha ravishda 6 ta tilda (*qoraqalpog‘, tojik, qozoq, rus, qirg‘iz va turkman*) o‘tkazish.

Ta‘lim xorijiy tillarda olib borilayotgan maktablardagi badiiy adabiyotlar fondini 2 baravarga oshirish.

Millatlararo munosabatlar sohasida ilmiy-ommabop maqolalar sonini 3 baravarga oshirish.

Do‘stlik jamiyatlari sonini 60 taga yetkazish hamda birodarlashgan shaharlar sonini 2 baravarga oshirish.

Prezident farmonida

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish va uning maqsadli ko‘rsatkichlariga erishish barcha davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida eng ustuvor vazifa etib belgilangan.

Unga ko‘ra, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan va amalga oshirilishi davom etayotgan, o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan barcha maqsadlarga erishish va dolzarb vazifalar bajarilishi ta‘minlanadi.

Serjantlar forumi

MILLIY ARMIYAMIZNING ASOSIY TAYANCHI



O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi negizida Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti tashkil etilib, Serjantlar tayyorlash oliy maktabi universitet tasarrufidagi harbiy ta'lim muassasasi sifatida o'z faoliyatini yangidan boshlashi milliy armiyamizda amalga oshirilgan eng muhim islohotlardan biri bo'ldi. Chunki milliy armiyamizning asosiy tayanchi bo'lgan serjantlarni innovatsion g'oyalar asosida o'qitish, ularda yetakchilik qobiliyatini shakllantirish, zamonaviy qurollar va yangi taktik usullar bo'yicha ko'nikmalarini oshirishning yangicha tizimi joriy etildi.

Shuningdek, Prezidentimizning 2024-yil 27-fevraldagi farmoniga asosan, Mudofaa vazirligi qo'shinlarida professional serjantlar korpusi faoliyatini takomillashtirish maqsadida bosh serjant va bosh serjant yordamchilari lavozimlari joriy etilgandi. O'tgan qisqa vaqt davomida mazkur lavozimlarda xizmat burchini o'tayotgan harbiy xizmatchilar ish tajribasi, taklif va mulohazalari qo'shinlarda keng

va yechimi" mavzusida serjantlar forumi o'tkazildi. Forum davomida soha mutaxassislari va Mudofaa vazirligi bosh serjantlarining ma'ruzalari tinglandi. Har bir ma'ruza bo'yicha savol-javoblar uyushtirilib, qizg'in munozara-mulohaza jarayoni tashkillashtirildi. Ayniqsa, bildirilgan takliflar forum ishtirokchilari tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Qisqa qilib aytganda, tajriba almashish, kasbiy mahoratni oshirish, vazifalarni

ma'lumki, qo'shimcha ixtisosliklar yashovchanlikni, jangovar faoliyat samaradorligini ta'minlovchi, o'zaro bog'liq va turdosh ixtisosliklar yo'nalishlari bilan guruhlash muhim omildir. Yashovchanlikni ta'minlovchi mutaxassisliklar jangovar xizmat vazifalarini

muhokamasi serjantlar forumining kun tartibidan o'rin oldi va barcha kuch tuzilmalarida amalga tatbiq etish jarayonini ishga tushirish, bu borada o'zaro tajriba almashib turishga kelishib olindi.

Shunisi diqqatga sazovorki, mazkur forumga O'zbekiston



qo'llanilib, serjantlar korpusining faoliyatida o'ziga xos yutuqlar qo'lga kiritildi. Buning natijasida milliy armiyamizda serjantlar maktabi tajribasini yaratishga tamal toshi qo'yildi.

Serjantlar tayyorlash oliy maktabida "Mudofaa vazirligi qo'shinlarida jangovar shaylikni ushlab turishda serjantlar korpusining o'rni va roli, ularning faoliyatidagi muammoli masalalar

belgilab olish, dolzarb masalalarni hal etish kabi o'ndan ortiq taklif muhokama etildi va istiqboldagi rejalar haqida kelishib olindi.

Forum davomida qo'shinlarning jangovar xizmat faoliyati xususiyatlaridan kelib chiqib, kontrakt bo'yicha oddiy askar va serjantlarning bir necha qo'shimcha ixtisoslik bo'yicha tayyorgarlikdan o'tishini yo'lga qo'yish dolzarbligiga e'tibor qaratildi. Tajribadan

bajarishda harbiy xizmatchining sog'lig'i va hayotini saqlashga, yuklatilgan vazifalarni to'laonli va yuqori samaradorlikda bajarishga imkon beradigan qo'shimcha mutaxassislikdir.

Harbiy xizmatchilar o'zaro bog'liq mutaxassisliklarni bir ekipaj yoki hisob tarkibida jangovar xizmat vazifalarini bajarishda harbiy xizmatchilarga bir-birini almashtira olish imkonini beruvchi, funksional majburiyatlari bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lgan holda o'rganishlari orqali bo'linmaning jangovarligini oshirishi kafolatlanishi qayd etildi. Bu kabi taklif va dolzarb masalalarning

Respublikasi Milliy gvardiyasi, Ichki ishlar vazirligi Qorovul qo'shinlari, DXX Chegara qo'shinlari qo'mondonliklari hamda Favqulodda vaziyatlar vazirligi safida xizmat qilayotgan serjantlar ham taklif etildi. Forum qatnashchilari uchun Mudofaa sanoati agentligi tomonidan ishlab chiqarilgan zamonaviy qurol-aslahalarning namoyishi o'tkazildi. Tadbir davomida xalqaro musobaqalarda g'oliblikni qo'lga kiritgan, harbiy qismlarda xizmatdoshlariga namuna bo'layotgan bir qator serjantlar taqdirlandi.

Asror RO'ZIBOYEV
"Vatanparvar"



Esse

VAQT YOMG'IRDEK

Hovlimiz "Abdurahmon cho'qqisi"ning etagidan boshlanadi. Biz – akalarim bilan ana shu tog'ga ulanib ketgan teshik tosh oldidan o'tgan ilon yo'ldan yurib, T-72 tanki bemalol kirib ketadigan g'ordan kabutar ushlab, uyga qaytardik. Aytgancha, qushlarni har doim ham tutib ololmasdik. Faqat qishda – ha, unda ham qor dahshatli yog'ganida, hamma tomonni quyuq tuman qoplaganida, yerlar muzlaganida – bu yumushning uddasidan chiqardik xolos.

Ehtimol, o'shanda menda ovchilikka qiziqish paydo bo'lgandir. Yana bilmadim. Har holda o'sha qanot qoqqan qushlarni qopga solishni vaqti-vaqti bilan qo'msayman. O'zi umuman, har kimda, albatta, bir iste'dod bo'ladi, degan fikrga qanday qaraysiz? Haqiqatan ham shu gap rostmikan, a, nima deysiz? Qisqasi, siz shu savolga javob izlab turing, ungacha kamina Surxon tomonlarda ichgan qasamiga vafo qilib, tong ottirayotgan o'g'lonlarning xizmat faoliyati xususida bir ikki og'iz so'zlab beraman.

Demak, tayyorsiz, a? Chunki hikoyamni boshladim. Tong saharlab ayni viloyatdagi harbiy qismlarning biridagi shaxsiy tarkib kundalik mashg'ulotlarni olib borish uchun Mudofaa vazirligiga qarashli dala-o'quv maydoniga yetib keldi. Poligon yaqinidagi cho'qqilardan kaklik va tog' chumchuqlarining qorishib ketgan sohir ovozlari o'ynoqlayotgan shamolda havoda kezib yurardi. Toshlarga urilib, yanada mayinlashgan shabada harbiy libos ostidagi yuraklardan oqib, a'zolarga oniy nafas ulashayotgan qonlarni yanada tezlashtirardi. Nigohlari o'quv joylaridagi nishonlarga qadalgan merganlar yelkalaridagi yo'ldoshlari – merganlik miltiqlarining qo'ndog'larini ohista, ammo tez-tez, mehr bilan va yana ulkan ishtiyoq ila silab qo'yishdi. Ularning har bir barmoqlari burgut panjalaridek maxsus niqob tortilgan stvol uzra borib kelardi.

Komandir hammani safladi:

– Bugungi vazifalar sizlarga notanish emas, – dedi podpolkovnik Jaloliddin Teshaboyev. – Chunki shu kunga qadar aynan topshiriqlarni ko'p bor bajargansiz. Faqat bu safar tezkorlikka va jamoaviy ishlashga alohida e'tibor qaratamiz. Birgalikdagi harakatlarimizni yanada muvofiqlashtirib olamiz. E'tibor qilgan bo'lsangiz, nishonlar joylashuvi ham biroz o'zgargan va masofasi ham uzoqlashtirilgan. Boisi birxillikdan qochgan holda shu qarorni qabul qildik. Albatta, bu sizlar uchun qiyinchilik tug'dirmaydi.

Guruhlar o'quv joylariga tarqaldi.

Yigitlar qurollarni yana bir bor ko'zdan kechirib chiqdi. O'qlar o'qdonga joylandi. Mo'ljalga olish moslamalari kerakli masofaga to'g'rilandi. Bunda nigoh va barmoqlarning o'zaro uyg'unligi yanada mustahkamlanadi. Ahamiyatlisi, bu jarayonlar harbiy xizmatchilar tomonidan shunaqangi ehtiyotkorlik va xotirjamlik bilan bajarilayotgandiki, go'yo yigitlarning ko'zlari yumilgan holda ham qurolni, o'qni his etib, uni o'qdonga joylay olish mumkinligini aytmay turib, amalda ko'rsatayotgandi. Albatta, haqiqiy mergan – Vatanga qasamyod qabul qilgan har bir harbiy xizmatchi borki, u shu lahzadan binoan, merganga aylanadi. Shunday ekan, nishon faqat ko'z bilan ko'rilmaydi, u avvalo, his etiladi. Xususan, masofa, shamolning esishi, namlik, tortishish kuchi – bularning hammasi qalb ko'zi ishlashni boshlasagina bexato yakunlanadi.

Bilasiz, guruh tarkibida asosiy vazifani bajaradigan – bu merganlar. Ular masofadan shartli dushman kuchlarini bitta-bitta



SAVALAB O'TADI

Kichik serjant Davlatbek Rahmatov



yakson etib, safdoshlariga yo'l ochadi – muhofaza etib turadi. Demak, ushbu jarayonlarda yo'l qo'yilgan har qanday xato topshiriqning umumiy natijasiga, tarkibning falokatiga olib kelishi mumkin. Ana shunday holatlarning oldini olish, ayni mutaxassislarning ko'nikmasini yanada mustahkamlash uchun mazkur o'quvlarda ham alohida vazifalar berildi. O'quv rahbarlari yigitlarning barcha harakatlarini diqqat bilan kuzatib, yo'naltirib bordi.

Ilk otilgan o'q nishonga tegdimi? O'q otilganini hech o'z quloqlaringiz bilan eshitganmisiz, ya'ni yurakdan o'tkazganmisiz? Unda gurungimizning bu qismini xayolingizda jonlantirib, eshitasiz-da. Hamma yurt farzandlari o'z pozitsiyalarini zudlik bilan egalladi. Merganlarning biri baland daraxt ustiga, ikkinchisi qoyatosh bag'riga singib ketdi. So'ng ilk o'q uzildi – "Qars". Nishon chap tomonga og'di. Endi yo'l ochildi.

– Hisob, mo'ljalga ol va o'q uz! – dedi kapitan Erkin To'rayev. Bu safargi ovoz tog'lar qa'ridan chiqqan azaliy gumburlashga o'xshardi.

– Bu boshqa gap, – dedi kapitan qaddini yanada g'oz tutib. Uning ovozi faxr va g'urur bor edi.

– Unutmang, – deya nishonning kulini ko'kka sovurgan guruhga murojaat qildi yetakchi, – qachonki sizlar – guruh hamisha hozirgidek bir bo'lsangiz, o'qingiz, albatta, to'g'ri ketadi. Vaqtini yanada tejash ustida ko'proq ishlash kerak. Yutuqlar

o'zimizniki, ammo kamchiliklarni bartaraf etsak, harakatlarimiz xamirdan qil sug'urgandek silliq va bexato bo'ladi.

Jangdagi har bir harakat o'ylangan bo'lishi kerak. Yaxshi taktika va yaxshi harakat jips guruh uchun keyingi qadamni belgilaydi. Gap shundaki, nishonlar joylashgan masofasi o'zgardi. Guruh ham shunga qarab, qurollarini saralashni boshladi: minomyot, pulemyot, granatomyot...

– Himoya nimchasi tashqi zarbadan asrasa, olingan bilim yurakka kuch, ruhga ishonch, tomirdagi qonga yo'l ochadi, – dedi serjant Suhrob Nasriddinov. – Aytgancha, hozir sanab o'tganlarimning qanchasi sizda bor? Bo'lsa, bu yutug'ingiz! Siz ishonchli mutaxassisga aylanibsiz. Faqat bir jihatni esdan chiqarmaslik kerak: vaqt hech qachon insonning tayyor bo'lgunicha to'xtab turaman, demaydi. Shunchaki u o'tib, daryoni o'z yo'lidan oqizib ketaveradi. Faqat sergaklargina har ondan, har havodan to'yinadi. O'zi tanlagan mutaxassislignini yanada takomillashtiradi.

Yuzida niqob, ko'zida himoya oynaklarni taqib olgan yigitlar baravariga boshlarini qimirlatib, safdoshlarining so'zlarini ma'qullashdi. Aslida, ularning har biri, har daqiqada bu fikrlarni amalda qo'llash – chin mutaxassis bo'lish uchun kurash olib boradi.

Endi og'ir guruh qurollari qo'llaniladi. Toshning o'z-o'zidan dumalab ketganini hech ko'rganmisiz? Yo'qmi? Kaminaning gapini tinglashda davom etsangiz, aynan ana shu manzara qanday yuz berganini – sokin qoya bag'ridagi bo'laklar snaryadlar ovozidan ajralib chiqib, uzoqlarga borib qolganini bilib olasiz.

O'sha kuni mashg'ulotlar davomida yaqin masofadagi nishonlar yakson etilgach, guruhga madad berish uchun og'ir guruh qurollari ishga tushdi. Turli pozitsiyalardan ketma-ket, to'xtovsiz tepkilar bosildi. Har olingan o'q keyingisi uchun zamin yaratardi. Nishon sifatida belgilangan hududdan ko'tarilgan chang, hattoki qochishga joy topolmay, sarson bo'lardi.

Ana shunda tik qoyadagi toshlar chidab turolmadi: ular yumalayverdi-yumalayverdi... Chunki bunday gumburlash, bunday vahima har qanday qalbga adog'i yo'q og'riqni olib kiradi.

Bu voqealar aytilganidek uzoq cho'zilmagan. Vazifalarni bajarish uchun azamatlarga atigi bir necha daqiqa kifoya bo'lgan xolos. Chunki ular – harbiy xizmatchilar, avvalboshda aytganimdek, hatto ko'zini yumib qo'ysangiz ham, nishon markaziga o'q joylashga qodir. Bunday tayyorgarlik milliy armiyamizning har bir a'zosiga xos.

Ha, shunaqa gaplar. Biz o'sha siz bilgan tog' etaklarida joylashgan poligonidagi bir mashg'ulotlar xususida gurunglashdik. Ishoning, ko'p jarayonlarni tashlab o'tdim. Chunki vaqt yomg'irdek savalab o'tadi. Eplay olsang, ust-boshingni ho'l qilmay, uning mehridan bahra olib qol. Faqat hamma gap – qanday qilib ivib ketmaslikda.

Darvoqe, ovchilik borasidagi kechinmalarimni so'zlab berishni keyinroqqa qoldiraman.

Sh. SAIDOV



Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi mutaxassislari kuni



MA'NAVIY TARBIYA

Dekabr oyining ikkinchi yakshanbasi – Mudofaa vazirligi tizimida Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi mutaxassislari kuni kasb bayrami sifatida nishonlanadi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetida bayram tadbiri o'tkazildi.

Unda Mudofaa vazirligi rahbariyati, hamkor tashkilotlar vakillari, Qurolli Kuchlar faxriylari va harbiy xizmatchilar ishtirok etdi. So'z olganlar davlatimiz tomonidan milliy armiyamizning jangovar qudratini oshirish maqsadida nafaqat qo'shinlarning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish, balki harbiy xizmatchilarning ma'naviy va intellektual salohiyatini yanada oshirish, axloqiy-ruhiy holatini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilayotganini ta'kidladi. Harbiy qism va muassasalarda ayni shu jabhada olib borilayotgan ishlarda tarbiyaviy-mafkuraviy ishlar organi mutaxassislarning o'rni juda muhim ekanini misollarda keltirildi.

– Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarning sohaviy yo'nalishlari bo'yicha joriy yilning o'tgan



oshirishga ahamiyat qaratadi. Shu bois navqiron avlod vakillarining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, o'g'il-qizlarda Vatan taqdiri uchun daxldorlik hissini mustahkamlash maqsadida tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda **“Armiya – vatanparvarlik va jasorat maktabi”** shiori



vatanparvar, yurt ishqini bilan yonib yashaydigan mardlarni tarbiyalash, xizmat majburiyatlarini sidqidildan ado etish va eng muhimi, davlatimiz rahbari, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni tomonidan qo'yilgan barcha topshiriqlarni o'z vaqtida va sifatli bajarishdan iboratdir.

eng ilg'or ekaningni bir safar amalda isbotladingmi, demak, ana shu darajada keyingi vazifalarni ham davom ettirish kerak. Shunday ekan, bundan buyon ham bildirilgan ishonchni munosib oqlash, shaxsiy tarkibning ma'naviy dunyosini boyitish, ular qalbidagi Vatan ishqini yanada mustahkamlash uchun qo'limdan kelgancha harakat qilaman. O'qib-o'rganib, bilimlarimni boyitaman. Boisi o'z ustida muntazam ishlash muvaffaqiyat omili sanaladi.

Aytish kerakki, milliy armiyamiz saflarini professional tayyorgarlikka, yuqori axloqiy-ruhiy sifatlariga ega, barkamol, fidoyi va sadoqatli harbiy xizmatchilar bilan butlash, xalqimiz, ayniqsa yoshlar ongiga vatanparvarlik tuyg'ularini singdirishda aynan tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi mutaxassislarning xizmati beqiyos. Shuning uchun ham ayni soha vakillari hamisha marrani katta oladi – vazifalarni oxiriga yetkazadi. Tajriba va



davrida **45 200** dan ortiq ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi, – deydi podpolkovnik Botir Qo'ziyev. – Shuningdek, harbiy xizmatchilar bilan **31 mingga** yaqin axloqiy-ruhiy tayyorgarlik, jangovar va milliy ruhni yanada oshirishga qaratilgan mashg'ulot olib borildi. **26 000** dan ortiq huquqbuzarlik profilaktikasiga doir tadbir hamda **14 200 dan** ziyod harbiy xizmatchi oila a'zolari bilan uchrashuvlar amalga oshirildi. Bilasiz, o'z kelajagiga beparvo bo'lmagan davlat borki, o'sib-ulg'ayib kelayotgan yosh avlod uchun qulay sharoitlar yaratishga, ularning jamiyatdagi o'rnini

ostidagi chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Mazkur dastur asosida, 2025-yilning o'tgan davri davomida yoshlar bilan **11 446** ta harbiy-vatanparvarlik, madaniy-ma'rifiy va sport tadbiri tashkil etilib, unga **622 033 nafarga** yaqin yosh qamrab olindi.

Albatta, raqamlar amalga oshirilayotgan ishlar ko'lamiga qarab yanada o'sib boraveradi. Asosiysi, ertangi kunga befarq bo'lmagan, harbiy xizmatchilarning ham ma'naviy, ham jangovar va milliy ruhini oshirishga ayni yo'nalishdagi mas'ul ofitserlar hamisha ahamiyat qaratib kelmoqda. Ularning maqsadi chin

– Bayram arafasida yil davomida qilgan mehnatlarimiz uchun rag'batlantirildik, – deydi katta leytenant Sarvar Shermatov. – Bilsangiz, bu kishini yanada ilhomlantiradi. Chunki e'tibor har kimni yanada ilg'or bo'lishga undaydi. Mudofaa vazirligi qo'shinlarida an'anaviy tarzda o'tkazib kelinadigan “Eng ilg'or tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi ofitseri” ko'rik-tanlovida joriy yil 1-o'ringa munosib ko'rildim. Bu men uchun katta mas'uliyat baxsh etadi. Chunki



JAMIYAT TARAQQIYOTI OMILI



Kichik serjant Ixtiyorjon MAMAJONOV



bor mahoratlarini faqat harbiy xizmatchilarning rivojlanishlari uchun safarbar etadi.

Bayramning eng hayajonli daqiqalari – bu yil davomida o'tkazilgan musobaqalar va tanlovlarda g'olib bo'lganlarni rag'batlantirish marosimi bo'ldi. Xususan, **“Ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishida eng ilg'or**

qo'mondonlik” nominatsiyasi bo'yicha Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligi hamda Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi g'olib deb topildi. Markaziy harbiy okrug va Mudofaa vazirligiga qarashli qo'mondonlik **“Axloqiy-ruhiy tayyorgarlik yo'nalishida eng ilg'or**

bo'lganlar ham munosib taqdirlandi. Demak, 1-o'rinni podpolkovnik Ixtiyor Choriyev, mayor Ildar Muhiddinov, katta leytenant Sardor Shermatov qo'lga kiritdi. Ikkinchi o'ringa podpolkovnik Sardor Sodirov, mayor Nodirbek Qulmatov, katta leytenant Javohir Latifjonov munosib ko'rildi.

ishtirokchilar ham ma'lum bo'ldi. Qurolli Kuchlar xizmatchisi Odina Odilova 1-o'rinni band etgan bo'lsa, 2-o'ringa Hilola Tursunmatova, 3-o'ringa esa Nargiza Abdullayeva loyiq topildi.

G'oliblar faxriy yorliq, ko'krak nishoni hamda qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.



qo'mondonlik” tanlovida birinchilikni qo'lga kiritdi. **Huquqbuzarliklar profilaktikasi yo'nalishida eng ilg'or qo'mondonlik”** tanlovida esa Shimoli-g'arbiy hamda Toshkent harbiy okruglari munosib ko'rildi. Sharqiy va Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug **“Yoshlar bilan ishlash yo'nalishida eng ilg'or qo'mondonlik”** nominatsiyasida g'olib bo'ldi.

Shuningdek, **“Eng ilg'or tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi ofitseri”** tanlovida g'olib

Uchinchi o'rinni esa podpolkovnik Murodjon Yusupov, mayor Sherzod Rayimjonov, kapitan Bahrom Joniyev band etdi.

“Eng ilg'or harbiy psixolog” tanlovi qatnashchilari ham shu kuni e'tirof etildi. Unga ko'ra, 1-o'rinni katta leytenant Abbos Bahridinov, 2-o'rinni katta leytenant Ahmadjon Mehmonaliyev qo'lga kiritdi. Uchinchi o'ringa esa mayor Shohrux Ergashev va leytenant Begzod Tojiyev munosib topildi.

Shuningdek, **“Xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oila a'zolari bilan ishlash bo'yicha eng ilg'or yetakchi mutaxassis”** ko'rik-tanlovining respublika bosqichida g'olib bo'lgan

Xullas, yil davomida olib borilgan amaliy ishlar shu kuni o'z mevasini berdi. Musobaqa va tanlovlarda g'olib bo'lganlar, o'zini har tomonlama ko'rsata olganlar e'tirof etildi. Mehnat qilgan, albatta rag'bat olishini ushbu tadbir davomida barcha ko'rib, guvohi bo'ldi. Yangragan kuy-qo'shiqlar qalbi yurt ishqini bilan yongan, xalq osoyishtaligini ta'minlashni o'zining muqaddas burchi deb bilgan Vatan himoyachilari uchun haqiqiy bayramona kayfiyat ulashdi.

Kapitan Shohrux SAIDOV,
“Vatanparvar”

Chegara qo'shinlarida

IJTIMOY HIMOYA NAMUNASI



Mamlakatimiz tinchligi, xalqimiz farovonligini ta'minlayotgan harbiy xizmatchilar hamda ularning oila a'zolari ijtimoiy himoyasini ta'minlash, sarhadlarimiz posbonlari uchun munosib xizmat va turmush sharoitlarini yaratish maqsadida bugun zamonaviy turdagi chegarani qo'riqlash vzvodlari namunaviy loyiha asosida qurilib, barcha shart-sharoit va qulayliklarga ega bo'lgan xizmat xonadonlari foydalanishga topshirilmoqda.

namunasini bugun foydalanishga topshirilayotgan xizmat uylari misolida ham ko'rishimiz mumkin. Zamonaviy loyihalar asosida qurilgan bu ko'rkam va shinam xonadonlarda istiqomat qilish jasur o'g'lonlarimizga Vatan tinchligi, xalqimiz farovonligini ta'minlashdek mas'uliyatli vazifalarni bajarishlarida katta kuch-g'ayrat bag'ishlaydi, – deydi mehnat faxriysi Rahimboy Matrasulov.

Shu kabi tadbir Toshkent viloyati Ohangaron tumanida joylashgan harbiy qismlardan birida ham tashkil etilib, yangi xizmat xonadonlarining foydalanishga topshirilishi katta shodiyonaga aylanib ketdi.

Tadbirda Chegara qo'shinlari rahbariyati, Ohangaron tumani va shahar hokimligi mutasaddilari, nuroniylar, harbiy xizmatchilar hamda ularning oila a'zolari ishtirok etdi. So'z olganlar ushbu ezgu tashabbus yurt o'g'lonlarining fidokorona xizmatlarini munosib rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan muhim qadamlardan biri sifatida e'tirof etildi. Shundan so'ng Vatan himoyachilari xizmat xonadonlarining kalitini tantanali tarzda qabul qilib oldi.

Albatta, bunday baxt qo'rg'onlari harbiylarimizning kuchiga kuch qo'shib, sergakligini yanada oshirishi bilan birga, oila bekalarining ham qulayliklarini ta'minlab, farzandlarining bekam-u ko'st kamol topishlarida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari



– So'nggi yillarda Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni boshchiligidagi o'z burchini sidqidildan ado etayotgan yurt himoyachilarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalasiga alohida e'tibor qaratilib, amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida harbiy xizmatchilarni zamon talablari asosida barpo etilayotgan uy-joylar bilan ta'minlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ana shunday bunyodkorlik va yaratuvchanlik

Xorazm viloyati Shovot tumanida joylashgan Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlariga qarashli harbiy qismlarning birida sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlayotgan chegarachi o'g'lonlar va ularning oila a'zolari uchun yangi xizmat xonadonlari foydalanishga topshirildi.

Shu munosabat bilan o'tkazilgan tadbirda viloyat hokimi Jo'rabek Rahimov, Chegara qo'shinlari mas'ullari, nuroniylar va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Viloyat hokimi chegarachilarning mashaqqatli va shu bilan birga sharaflari xizmatlarini yuqori baholab, ularning oila a'zolari bilan birgalikda munosib tarzda, tinch-totuv istiqomat qilishlari hamda yurt himoyasi yo'lida samarali faoliyat olib borishlari uchun davlatimiz tomonidan barcha shart-sharoit va qulayliklar yaratib berilayotgani haqida to'xtalib o'tdi.

Uy hovlisida bayram shukuhi. Bir-biriga jo'r bo'layotgan karnay-surnay sadolari ostida ortda qolgan yillar sarhisobi-yu kecha



va bugunni qiyosiy taqqoslash imkoniga ega bo'lgan faxriylar o'z so'zlarida mamlakatimizda harbiylarning ijtimoiy himoyasini yanada yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan ishlar havas qilarli darajada ekanini alohida e'tirof etdi.



Qaror va ijro

QONUNLARNI KORRUPSIYAGA QARSHI EKSPERTIZADAN O'TKAZISHNING AHAMIYATI



Qonunlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi zamonaviy davlat boshqaruvi tizimida huquqiy islohotlarning muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi. Mazkur ekspertiza normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarida korrupsion xavf va omillar mavjudligini aniqlash, ularni baholash hamda bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-huquqiy tahlil jarayonidir.

Korrupsiya davlat boshqaruvi samaradorligini pasaytiruvchi, iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qiluvchi hamda fuqarolarning davlat organlariga bo'lgan ishonchini susaytiruvchi asosiy omillardan biri bo'lgani sababli huquqiy hujjatlar yaratilish bosqichidayoq bu illatga qarshi immunitetni mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi. Ekspertiza jarayonining asosiy mazmuni huquqiy normalarning aniqligi va bir ma'noliligini ta'minlash, vakolatlarining qat'iy chegaralanishini ko'zda tutish, mansabdor shaxslar tomonidan subyektiv qarorlar qabul qilinishiga imkon beradigan noaniq normalarni bartaraf etishdan iboratdir. Shu bilan birga, hujjat loyihasi orqali alohida guruh yoki shaxslarga asossiz imtiyozlar berilishining oldini olish ham ekspertizaning eng muhim vazifasidir. Mazkur jarayon qonun ijodkorligida shaffoflik va adolatni ta'minlash, normativ-huquqiy bazani "toza" va korrupsiyadan xoli tarzda shakllantirishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatning Asosiy qomusi sifatida normativ-huquqiy tizimning eng oliy darajasida korrupsiyaga qarshi kafolatlarni belgilaydi. **Konstitutsiyaning 7-moddasida** davlat hokimiyati xalqning irodasiga asoslanishi va qonun ustuvorligi tamoyili belgilangan bo'lib, bu korrupsiyaga qarshi kurashning nazariy asosini tashkil qiladi.

Konstitutsiyaning 19-moddasi har bir fuqaroning teng huquqliligini va davlat organlari faoliyatida adolatni ta'minlashni kafolatlaydi. Bu modda korrupsion xavflarni kamaytirish, vakolatlarining oshirib yuborilishining oldini olish va mansabdor shaxslarning subyektiv qarorlarini cheklash bilan bevosita bog'liqdir. Konstitutsiya davlat hokimiyati organlarining vakolatlari va ularning o'zaro muvozanatini belgilab, normativ-huquqiy ekspertizaning asosiy yo'nalishlari uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi, normativ-huquqiy mexanizmi belgilaydi, shuningdek davlat boshqaruvida adolat va shaffoflikni ta'minlovchi fundamental vosita hamdir.

Bundan tashqari, mazkur yo'nalish bo'yicha **"Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida"**gi qonun qabul qilingan bo'lib, u orqali ekspertiza jarayonining majburiyligi qonun darajasida belgilangan. Bu esa qonun ijodkorligi jarayonining har bir bosqichida korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirishga imkon beradi. Yaratilayotgan hujjatlarning sifatini oshirish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish hamda huquqni qo'llash amaliyotida qonunlar samaradorligini kuchaytirish ekspertizaning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilanadi.

Ushbu qonun 2023-yil 8-avgustda qabul qilingan bo'lib, 29 ta moddani o'z ichiga oladi.

Mazkur qonunda normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi qonuniylik, mustaqillik, xolislik, korrupsiyaga qarshi ekspertiza o'tkazishning majburiyligi, korrupsiyaga qarshi ekspertiza natijalarining asoslangani hamda ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida o'tkazilishi belgilangan.

Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi o'tkazuvchi subyektlar quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va uning hududiy bo'linmalari; normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining ishlab chiquvchilari bo'lgan davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatlari; tegishli normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlash o'z zimmasiga yuklatilgan davlat organlari va tashkilotlari.

Normativ-huquqiy hujjatni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim. Jumladan:

normalarning barqarorligi va huquqiy jihatdan muvofiqligi bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar; vakolatlar, huquq va majburiyatlar bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar; ma'muriy tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar.

Xalqaro tajribaga e'tibor qaratadigan bo'lsak, korrupsiyaga qarshi ekspertiza instituti dunyodagi ko'plab demokratik davlatlarda huquq yaratish jarayonining ajralmas qismi sifatida shakllangan bo'lib, u normativ-huquqiy hujjatlarda korrupsion xavflarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan maxsus mexanizm sifatida qaraladi. Xorijiy tajribani tahlil qilganda, bu sohada turli davlatlar tomonidan qo'llanilayotgan yondashuvlar mazmun-mohiyatiga ko'ra farq qilsa-da, **ularni birlashtiruvchi umumiy tamoyillar**

– shaffoflik, normativ aniqlik, jamoatchilik ishtiroki va huquqni qo'llashda subyektiv omillarni kamaytirishdir.

Yevropa davlatlarida korrupsiyaga qarshi ekspertiza asosan xalqaro standartlarga – OECD, GRECO va BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi talablariga asoslanadi. Germaniyada normativ-huquqiy hujjatlar ekspertizasi parlamentning huquqiy bo'limi, mustaqil ilmiy markazlar va jamoatchilik tomonidan muvofiqlashtirilgan holda amalga oshiriladi. Bu tizimda korrupsion xavf sifatida, eng avvalo davlat xizmatchisining normani talqin qilish jarayonida keng erkinlikka ega bo'lishi baholanadi. Shu bois Germaniya tajribasida huquqiy normalar eng kichik talqin farqlari ham bartaraf etiladi.

Fransiyada esa korrupsiyaga qarshi ekspertiza "Regulatory impact assessment"ning (RIA) tarkibiy elementi sifatida olib boriladi. Normativ hujjat fuqarolarga, biznesga, byurokratik jarayonlarga qanday ta'sir ko'rsatishi aniqlanadi, ayniqsa davlat organlari vakolatlarining kengayishi, ruxsat berish tartiblarining ko'payishi yoki ma'lum bir guruh manfaatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan normalar chuqur tahlil qilinadi. Bu esa huquqiy tartibga solishning korrupsiyaga chidamli bo'lishini ta'minlaydi.

Osiyo davlatlari ichida Janubiy Koreya korrupsiyaga qarshi ekspertiza borasida namunali tizim yaratgan davlatlardan biridir. Bu mamlakatda Korrupsiyaga qarshi va fuqarolik huquqlari komissiyasi faoliyat yuritadi va u har bir normativ-huquqiy hujjat loyihasini maxsus "korrupsion xavflar filtri" orqali tekshiradi. Ushbu filtr davlat xizmatchilarining qaror qabul qilish jarayonlarini to'liq raqamlashtirish, ruxsat berish jarayonlarini avtomatlashtirish va imtiyozlar berilishi mumkin bo'lgan barcha tartib-taomillarni huquqiy asosda qat'iy chegaralashga qaratilgan. **Koreya tajribasining eng muhim jihati korrupsiyaga qarshi ekspertizani inson omilidan maksimal darajada xoli qilish, ya'ni huquqiy tizimning**

"Adolat o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi, u ongli ravishda yaratilgan toza va aniq normalar mahsulidir".

J. LOKK

avtomatlashtirilgan modeli orqali xavflarni aniqlashga intilishdir.

Singapur ham korrupsiyaga qarshi kurashda dunyo yetakchilaridan bo'lib, bu davlatda normativ hujjatlarni ishlab chiqishda "zero tolerance" tamoyili qo'llaniladi. Hamma hujjatlar nafaqat korrupsion xavfga tekshiriladi, balki ularning ijrosi ustidan "real-time" monitoring yuritiladi. Singapur modeli eng katta urg'uni davlat xizmatining shaffofligi, jarayonlarning soddaligi va davlat organlari vakolatlarining maksimal darajada aniq chegaralanishiga qaratadi. **Natijada davlat xizmatchisiga subyektiv qaror qabul qilish uchun imkon beradigan huquqiy maydon deyarli qolmaydi.**

Skandinaviya mamlakatlari – Shvetsiya, Norvegiya, Finlyandiya kabi davlatlar esa korrupsiyaga qarshi ekspertizani huquqiy madaniyat, ochiqlik va hisobdorlik tamoyillariga tayanib amalga oshiradi. Bu davlatlarda har qanday normativ-huquqiy hujjat loyihasiga jamoatchilik, OAV, nodavlat tashkilotlari to'liq kirish imkoniga ega. Shvetsiyada davlat organlari faoliyatining 100 foizga yaqini ochiq ma'lumot sifatida e'lon qilinadi, bunga qonun loyihalaridan tortib mansabdorlar yozishmalarigacha kiradi. **Bunday ochiqlik korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni hujjat darajasidayoq bartaraf etadi.**

Xulosa qilib aytganda, korrupsiyaga qarshi ekspertizaning eng samarali modeli quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi: ekspertizaning majburiyligi va mustaqilligi; jamoatchilikning faol ishtiroki; vakolatlarining qat'iy chegaralangan; barcha tartib-taomillarni soddalashtirish; huquqiy jarayonlarning to'liq raqamlashtirilishi; korrupsiya xavflarini aniqlash uchun ilmiy asoslangan indikatorlar tizimi. Shuningdek, ilg'or tajriba shuni tasdiqlaydiki, **korrupsiyaning oldini olish huquqiy hujjatlar sifatiga bevosita bog'liq bo'lib, normativ jarayonning o'zi korrupsiyaga qarshi immunitet bilan mustahkamlangan taqdirdagina, jamiyat uchun adolatli va samarali boshqaruv mexanizmi yaratiladi.**

Umuman olganda, qonunlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi korrupsiya bilan bog'liq har qanday huquqbuzarlik yoxud qonun buzilishlarining oldini olishga xizmat qiladi. Huquqiy normalarning aniq ishlash mexanizmini yaratishga ko'maklashadi hamda inson va davlat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda shaffoflikni ta'minlaydi.

**Adliya leytenanti
Charosxon TO'RAYEVA,
Mudofaa vazirligi
yuridik boshqarmasi
bo'lim katta ofitseri**



Mening armiyam – mening faxrim

YURTGA SADOQAT VA G'URUR TARANNUMI



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 1-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni yuqori saviyada o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishiga muvofiq, Mudofaa vazirligi qo'shinlarida "Milliy armiya – ona yurt qalqoni, tinchligimiz posboni!" shiori ostida "Vatanparvarlik oyligi"ga start berildi. Oylik doirasida Mudofaa vazirligi Ma'naviyat va madaniyat markazida Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansamblining hisobot konserti ham o'tkazildi.

Ushbu madaniy-ma'rifiy tadbir Vatanga muhabbat, milliy g'urur va fidoyilik tuyg'ularini yanada yuksaltirish, harbiy xizmatchilar hamda keng jamoatchilik o'rtasida vatanparvarlik ruhini mustahkamlashga qaratilgani bilan ahamiyatli bo'ldi.

Tadbirda mudofaa vazirining o'rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev, vazirlikning mas'ul xodimlari, Qurolli Kuchlar faxriylari, xalqimiz ardog'idagi san'atkorlar, so'z ustalari, harbiy xizmatchilar, keng jamoatchilik vakillari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

Dastlab tadbirda mas'ul shaxslar tomonidan ramziy tugma bosildi hamda "Vatanparvarlik" oyligiga rasman start berildi. Shundan so'ng so'zga chiqqan mutasaddilar mamlakatimiz tinchligi va xavfsizligini ta'minlashda Qurolli Kuchlarimizning o'rni beqiyos ekanini alohida ta'kidladi. Shuningdek, harbiy xizmatchilarning mas'uliyatini yanada oshirish, ularning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirish, yosh avlodni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini e'tirof etishdi.

Tadbirning badiiy qismi Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansamblining yil yakuniga bag'ishlangan hisobot konserti bilan davom etdi. Dastur davomida ansambl jamoasi repertuaridan o'rin olgan Vatanga muhabbat, sadoqat va fidoyilikni tarannum etuvchi, harbiy-vatanparvarlik, milliy hamda zamonaviy ruhdagi jami 30 ga yaqin musiqiy asar, raqs kompozitsiyalari tomoshabinlar e'tiboriga havola etildi.

Muhimi, ansambl jamoasining yuksak mahorat, samimiyat va vatanparvarlik ruhidagi ijrosi zalda yig'ilganlarga beqiyos estetik zavq bag'ishladi, ularning qalbida milliy armiyamizga nisbatan cheksiz hurmat va ishonch tuyg'usi mustahkamlandi, milliy g'urur, faxr va iftixor tuyg'ularini yanada yuksaltirdi. Shuning uchun ham haqiqiy bayramona va ilhombaxsh

ruhda o'tgan mazkur konsert mehmonlar xotirasida unutilmas taassurot sifatida muhrlandi.

Shuni ta'kidlab o'tish joiz, yurtimizda "Vatanparvarlik oyligi" keng miqyosda nishonlanib, bunda kuch tuzilmalari o'zaro hamkorlikda xalq va armiya birdam ekanligini maqsadli reja va dasturlar orqali namoyish etib boradi.

Sherzod EGAMBERDIYEV,
"Vatanparvar"



Vatanparvarlik festivali



ONA YURT QALQONI

Surxondaryo viloyatining Termiz shahrida “Vatanparvarlik oyli” doirasida yuksak ruh va faxr tuygʻulariga boy tadbirlarga start berildi. Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi hamda 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni bayrami munosabati bilan “Milliy armiya – ona yurt qalqoni, tinchligimiz posboni!” shiori ostida oʻtkazilayotgan vatanparvarlik festivallari shahar hayotiga bayramona shukuh bagʻishladi.



Festival doirasida Termiz shahrining markaziy koʻchalari boʻylab oʻtkazilgan tantanali marsh tadbirning eng esda qolarli va taʼsirli lahzalaridan biri boʻldi. Harbiy orkestrning sadolari ostida saf tortib mardona harakatlangan faxriy qorovul, bayroqdorlar hamda Qurolli Kuchlar kuch tuzilmalari harbiy xizmatchilari shahar ahlida katta hayajon uygʻotdi.

Boʻlinmalar Termiz shahridagi “Vatanparvarlar bogʻi”dan yoʻlga chiqib, Surxondaryo viloyati hokimiyati binosi orqali etnoshahar maydoniga qadar namoyishkorona yurishni amalga oshirdi. Bu yurish nafaqat harbiy intizom va jangovar shaylikning yorqin namoyishi, balki xalq bilan armiya oʻrtasidagi mustahkam ishonch va hamjihatlik ramzi sifatida ham katta ahamiyat kasb etdi.

Tadbir doirasida maxsus etnoshaharcha barpo etilib, ushbu hududda zamonaviy harbiy texnikalar, turli qurol-aslahalar koʻrgazmasi tashkil etildi. Koʻrgazmaga tashrif buyurgan tomoshabinlar milliy armiyamiz ixtiyoridagi texnika va vositalar bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega

boʻldi. Bu esa xalqimizning tinch hayotini qoʻriqlab turgan qudratli kuch – milliy armiyamizga boʻlgan ishonchni yanada mustahkamladi.

Shuningdek, tadbir davomida harbiy xizmatchilar tomonidan qoʻljangi, taktik mashqlar hamda turli harbiy chiqishlar namoyish etildi. Mardlik, chaqqonlik va jasoratni oʻzida mujassam etgan ushbu chiqishlarni, ayniqsa yoshlar katta qiziqish bilan kuzatdi. Zero bu kabi koʻrgazmali chiqishlar yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat, milliy gʻurur va harbiy xizmatga boʻlgan qiziqishni oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur vatanparvarlik festivali aholi oʻrtasida milliy armiyamizning qudrati, jangovar shayligi hamda xalq bilan armiya oʻrtasidagi mustahkam hamjihatlikni yana bir bor yaqqol namoyon etdi. Shuning uchun ham bunday tadbirlar yurtimiz tinchligini asrash, Vatan himoyasi muqaddas burch ekanini yoshlar ongiga chuqur singdirishda muhim oʻrin tutadi.

**III darajali serjant
Akbar AHMEDOV**
Termiz garnizoni



BEHBUDIY “MUTOLAAXONA”SIDAN



Viktor Gyugoning “Parij Bibi Maryam ibodatxonasi” asarida o'sha davr aholisining yoshlar haqidagi e'tirozlari bexos diqqatimni o'ziga tortdi. Tasavvur qiling: XV asr. Sharqda Navoiy yashab, ijod qilayotgan zamonlar. Shu paytda G'arbda keng ommaviy aholi logann Gutenbergning kitob bosish dastgohi ommalashuvidan nolib, yoshlar tarbiyasi buzilyapti, ularning xulqi noto'g'ri yo'lga kirib borayotgani haqida shikoyat qilishardi. Yozuvchi bu holatni qalamga olar ekan, yoshlarning axloq va tarbiyasi buzilishida miltiq, to'pponcha yoki zambaraklar emas, balki bo'lar-bo'lmas kitoblarning chop etilishi sabab bo'layotganini xalq tilidan aytadi. Hatto bu holatni vaboga qiyoslaydi.

Demak, VI asr avval ham kitob atalmish xazinaga oson bo'lmagan.

Bugun ham axborot almashinuvining virtual shakli allaqachon dunyoni egallab bo'lgan bo'lsa-da, hamon kitobdan, uning ulug'vor kuchidan umidimiz katta. Mahmudxo'ja Behbudiy 1908-yili Samarqand shahrida “Mutolaaxona” nomli kutubxonaga asos solganidan xabaringiz bordir. Shu nom ostida bugun ham ulkan elektron kutubxona faoliyat olib borayotganini bilamiz. Jadid bobomiz yoqqan olov bugun “Mutolaa” nomi ostida yurtimiz yoshlarini bir nuqtada jamlay olgan eng katta platformaga aylandi.

Demak, mulohazalarimiz Behbudiy “Mutolaaxona”sidan to bugungi “Mutolaa” oralig'ida kechadi.

O'zbek zaminida shakllangan shahar madaniyati asrlar davomida ilm va ma'rifat bilan chambarchas bog'liq bo'lib kelgan. Bu taraqqiyotda kutubxonalar bilimni jamlash va avloddan avlodga uzatishning asosiy maskanlari sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, o'rta asrlar, xususan Amir Temur va Temuriylar hukmronligi davrida ilm-fan davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, katta ilmiy xazinalarga ega kutubxonalar vujudga kelgan. Keyinchalik, siyosiy boshqaruv shakli o'zgargan davrlarda ham ushbu an'ana uzilmagan: **xonliklar davrida Samarqand,**

Buxoro, Xiva va Qo'qon kabi markaziy shaharlarda saroylar huzurida boy qo'lyozmalar jamlangan yirik kutubxonalar faoliyat ko'rsatgan.

O'rta Osiyo xonliklari davrida kutubxonalar jamiyatda bilim va madaniyat markazi sifatida alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Tarix fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti professori Dono Ziyoyeva tadqiqotlarida ta'kidlashicha, XX asrning boshlarida Buxoro shahrida alohida madaniy hudud sifatida 13 ta kutubxona va 96 ta qiroatxona faoliyat yuritgan.

Buxoro amirlari saroyidagi kutubxona esa xalq ta'rixi va xalqaro madaniy aloqalarning ko'zgusi bo'lgan. U yerda xitoy, uyg'ur, pushtu, fors, arab va boshqa tillardagi qo'lyozmalar saqlanib, ularni muhofaza qilish va ro'yxatga olish bilan maxsus lavozim egalari – kitobdorlar, mushriflar, risolachilar va mirzolar shug'ullangan. Saroy kutubxonasida amirlarning shaxsiy kolleksiyalari ham mavjud bo'lib, umumiy hisobda **47,500 jild** turli tillardagi qo'lyozma va toshbosma kitoblar yig'ilgan edi.

Buxoroda faqat davlat kutubxonalari emas, balki o'z davrining nodir ulamolari va yuqori mansab egalari – qozilar va beklarga tegishli shaxsiy kutubxonalar ham faoliyat ko'rsatgan. Shaxsiy kutubxonalar orasida eng boyi amirzoda

Hashmatning kolleksiyasi bo'lib, u Buxoro amiri Muzaffarning o'g'li edi va o'zidan bir necha asarlar ham qoldirgan.

Buxoroda davlat kutubxonalaridan tashqari, bir necha yirik shaxsiy kutubxonalar ham faoliyat yuritgan. Ularning orasida qoziul-quzzot Abduvohid Sadr Balxiy va mutafakkir Muhammad Sharif – Sadri Ziyoning shaxsiy kolleksiyalari alohida e'tiborga sazovor. Muhammad Sharif Sadri Ziyo Buxoroning adabiy, madaniy va siyosiy hayotiga oid qimmatli ma'lumotlar beruvchi bir qator ilmiy asarlarni yaratgan. Uning kutubxonasidagi qo'lyozmalarning taxminan **300 taga** yaqini hozirda Sharq qo'lyozmalar jamg'armasida saqlanib, ilmiy tadqiqotlar uchun qimmatli manba sifatida xizmat qilmoqda.

Xiva shahri tarixida xon saroyi huzurida shakllangan kutubxona alohida ahamiyat kasb etgan bo'lib, u asrlar davomida jamlangan nodir qo'lyozmalar bilan ajralib turgan. Bu ilmiy-ma'rifiy maskanning rivojlanishi, ayniqsa, Xiva xonligini ma'rifatparvar ruhda boshqargan Muhammad Rahimxon Feruz hukmronligi davrida yangi bosqichga ko'tarildi. Ana shu davrda qo'lyozma merosini saqlash va ko'paytirish ishlari izchil yo'lga qo'yilib, ko'plab asarlar qayta ko'chirildi, turli tillardan tarjima qilindi,

toshbosma usulida nashr etildi hamda yangi ilmiy va adabiy asarlar yaratildi. Shu bilan birga, shaharlarda faoliyat yuritgan madrasalarning aksariyati o'z kutubxonasiga ega bo'lib, ular ta'lim jarayoni uchun zarur bo'lgan darslik va qo'llanmalar, shuningdek adabiyot, islom ilmlari, tarix, tibbiyot va geografiyaga oid qimmatli qo'lyozmalarni saqlagan.

JADIDLAR HARAKATI tarixini o'rganar ekanmiz, mutolaa madaniyati faoliyati nafaqat jamoat darajasida, balki har bir shaxsning kundalik hayotida ham o'z aksini topganiga guvoh bo'lamiz. Millatni uyg'otish, uni zamonaviy va ziyoli jamiyatga aylantirishni hayot-mamot masalasi deb bilgan har bir jadid va ma'rifatli oila uchun kutubxona muqaddas qadriyatga aylangan edi.

Shuningdek, adib va shoir Begali Qosimov jadidlar tomonidan tashkil etilgan kutubxonalar haqida muhim ma'lumotlar keltirib o'tadi. Uning ta'kidlashicha, Turkiston jadidlari milliy g'oyani keng targ'ib qilish maqsadida 1914-yildan boshlab nashriyotlar, shirkatlar va kutubxonalar ochish ishlari boshlagan. Bu muassasalar orqali gazeta, jurnal va kitoblarni nashr etish hamda aholi o'rtasida tarqatish ko'zda tutilgan, bu esa milliy ongni mustahkamlashga xizmat qilgan.

BUGUNGI “MUTOLAA” GACHA

Shu yo‘nalishda **Qo‘qonda ochilgan “G‘ayrat” kutubxonasi, Toshkentdagi “Nashriyot” shirkati, Buxorodagi “Ma‘rifat” kutubxonasi va “Barakat” kooperativi** jadidlar tashabbusining yorqin namunasi sifatida e‘tirof etish mumkin. Ushbu muassasalar milliy ma‘rifatning taraqqiyotida muhim rol o‘ynab, jadidlarning bilim va ma‘rifatni keng jamoatchilikka yetkazish g‘oyasini hayotga tatbiq etishda asosiy vosita bo‘lgan. Mazkur jarayonning amaliy davomi sifatida 1913-yilda Samarqand shahrida Mahmudxo‘ja Behbudiy tashabbusi bilan “Nashriyoti Behbudiya” tashkil etildi. Uning asosiy maqsadi yangi usul maktablari uchun darsliklar nashr qilish va mahalliy matbuotni rivojlantirishdan iborat bo‘lib, kutubxona ham aynan shu vazifalarga xizmat qilgan. U yerda zamonaviy adabiyotlar bilan bir qatorda davriy matbuot namunalari, diniy va tarixiy asarlar jamlangan edi.

1914-yilda Toshkent shahrida “Turon” jamiyati qoshida kutubxona hamda qiroatxona faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Jamiyat a‘zolari o‘z shaxsiy kitoblarini ushbu kutubxonaga ehson qilib, qisqa muddatda boy kitob xazinasi shakllanishiga hissa qo‘shdi. Keyinchalik mazkur kutubxona Toshkent viloyati kutubxonasiga aylantirilib, jamoatchilikka xizmat qiladigan yirik ma‘rifiy markazga aylandi.

Jadidlar tomonidan tashkil etilgan bunday kutubxonalarda asosiy e‘tibor zamonaviy adabiyotlarga qaratilgan bo‘lib, ular qatoriga yangi usul maktablari uchun tayyorlangan darsliklar, musulmon mamlakatlari va Turkiston hududida chop etilgan gazeta-jurnallar, shuningdek taraqqiyparvar ziyolilar ijodiga mansub asarlar

kirgan. Bu esa kutubxonalarni nafaqat kitob saqlanadigan joy, balki yangi g‘oyalar tarqaladigan ma‘rifiy maydonga aylantirgan.

MANBALARDA QAYD ETILISHICHA, Qo‘qon shahrida bir guruh erkin fikrli yoshlar 3-may kuni “Hurriyat” nomi bilan yangi nashriyot shirkatiga asos solgan. Shuningdek, qo‘qonlik Imomnazar qori Ali Nazar o‘g‘li Misr, Istanbul, Bayrut hamda tatar matbuoti orqali chop etilgan kitoblarni jamlab, ularga yangi nashrlarni qo‘shgan holda “Zamon” deb nomlangan kutubxonani tashkil etgani haqida ma‘lumotlar keltiriladi (“*Najot*” gazetasi, 1917-yil, may, №15).

“Hurriyat” gazetasi sahifalari ham ilm-fan va ma‘rifat masalalariga keng o‘rin ajratgani bilan ajralib turadi. Unda o‘lkadagi kutubxonalar faoliyati, xususan Samarqanddagi “Zarafshon” kutubxonasi jamg‘armasidagi kitoblar va ularning sotuv narxleri haqida aniq ma‘lumotlar berilgan. Shu bilan birga, ta‘lim sohasidagi yangiliklar, ayniqsa Buxoro amirligidagi ahvolga oid xabarlar muntazam ravishda e‘lon qilib borilgani qayd etiladi (“*Hurriyat*” gazetasi, 1917-yil 26-sentabr, №41).

Keltirilgan tarixiy dalillar shuni ko‘rsatadiki, har qanday ulkan g‘oya va islohotlar avvalo tafakkurda shakllanadi, bu jarayonda esa kitob va kutubxona hal qiluvchi o‘rin tutadi. Jamiyatning uyg‘onishi, harakatga kelishi va taraqqiyot yo‘liga chiqishida mutolaa madaniyati asosiy tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Bugun ham sho‘xlik qilgan farzandlarini jazolash maqsadida ularni soatlab kutubxonaga qamab qo‘yadigan millatlar haqida o‘ylar ekanman, katta-katta g‘alabalar zahirida aynan bilim va ma‘rifat yotganini anglaganday bo‘laman.

Ta‘lim shakli va bilim olish

tamoyillari tubdan o‘zgargan, hatto kitob o‘qish ham insondan katta kuch va vaqt talab qilayotgan shunday bir zamonda bunga astoydil yechim izlanayotgani meni behad quvontiradi.

O‘YLASHIMCHA, “Mutolaa” loyihasi kitobni zamon bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan juda to‘g‘ri qadam. Prezident tashabbusi bilan asos solingan bu loyiha kitobxonlikni rivojlantirish va ularni kitobga ommaviy ravishda yaqinlashtirish borasidagi katta qadamlardan biri sifatida aytish mumkin.

Bugun insonni kitobga majburlab o‘qitishning iloji yo‘q, ammo uni qiziqtirsa bo‘ladi. Shu rakursdan qaraganda, kitobni telefon, audio va video orqali taqdim etish o‘zini oqlayotgan yechimdek tuyuladi. Men bu loyihadagi eng qiziqarli tomonlardan biri – adabiy asarlarni ekranlashtirish yo‘nalishi.

Men Ernest Xemingueyning “Chol va dengiz” asarini ekranlashtirishda ssenariy muallifi sifatida ishtirok etdim. Shuningdek, yuzga yaqin kitobning elektron variantlarini tayyorlashda qatnashdim. Bu esa kitoblarni zamonaviy formatda saqlash va keng auditoriyaga yetkazish imkonini berdi.

Yoshlar va kitob haqida so‘z ketsa, ko‘pincha ustoz ijodkorlardan birining so‘zlari yodimga tushadi: **“Yoshlar asarlarni kitobdan o‘qiymidi, telefondanmi – farqi yo‘q.”**

O‘qisa bo‘ldi-da”.

Nazarimda ushbu qarash qaysidir ma‘noda jamiyat hayotida o‘z tasdig‘ini topayotganday. Yaqinda “Zakovat” o‘yinlari liga jamoalari orasida bir bilimdon yigit haqida so‘z ochildi. Kitoblardan tushadigan savollarni juda tez toparkan. Kasbi – oddiy haydovchi. Kitob o‘qishga umuman vaqti yo‘q, ammo doim mashinasida audiokitoblarni eshitib yurarkan. Ularning soni yuzdan oshib ketibdi hatto. Demak, mutolaaning zamonaviy formati hayotimizdan mustahkam o‘rin egallamoqda.

Xullas, kitoblar hozir faqat javonda turgan buyum emas, balki har bir insonning kundalik hayotiga kirib boradigan ma‘naviy hamrohga aylandi. Ushbu jarayon jamiyatda bilimga, fikr va tafakkurni rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojni qondirib, yosh avlodni kitobga yaqinlashtirishda samarali mexanizm sifatida xizmat qilayotganiga amin bo‘lmoqdamiz.

**Kapitan
Bobur ELMURODOV,
“Vatanparvar”**



Inson qadri uchun



KATTA MUASSASANING MAS'ULIYATI

Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gosptalining 700 bemorga xizmat ko'rsatadigan, turli jarrohlik amaliyotlarini o'tkazishga mo'ljallangan yangi bosh binosini foydalanishga topshirish marosimiga tashrif buyurgan davlatimiz rahbari soha xodimlariga tibbiy xizmatlarni raqamlashtirish va telemeditsina tizimini joriy etish bo'yicha muhim vazifalar qo'ygandi. Mazkur vazifa zamirida klinik gosptalning mavjud bo'limlari zamonaviy talablarga mos ravishda tibbiy uskunalar bilan jihozlanib, mamlakatimiz aholisi salomatligi yo'lida ish faoliyati olib borishi ko'zda tutilgandi.

O'tgan davr mobaynida gosptal xorijiy davlatlar mutaxassislari bilan hamkorlikda ish olib borib, murakkab tibbiy muolajalar ko'rsatish borasida salohiyatli yutuqlarga erishib ulgurd. Jumladan, tibbiy xizmatlarni raqamlashtirish va telemeditsina tizimining bosqichma-bosqich ishga tushirilishi bemorlarni davolash samaradorligini yanada oshirdi. Ayni kunlarda Markaziy harbiy klinik gosptal shifokorlari o'z kasbiga sodiq qolgan holda sohaga oid innovatsion texnologiyalarga asoslangan tajribasini mukammallashtirib bormoqda.

Bu jarayonni amalga oshirish uchun Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gosptali hamda "Yagona integrator UZINFOCOM", shuningdek "BePro" dasturchilar markazi bilan konsorsium kelishuvi imzolangan. "BePro" IT markazi dasturchisi Shohrux G'ofurovning ta'kidlashicha, shifokorlarni o'qitish 1-3 oylik kurslarda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti me'yorlari asosida olib boriladi. Bu yerda qo'llaniladigan IT dasturlari esa Markaziy harbiy klinik gosptal shifokorlarining texnik tavsiyasiga ko'ra, "BePro" markazi tomonidan ishlab chiqiladi.

O'z-o'zidan klinikada tibbiy xizmat ko'rsatish faoliyatining raqamlashtirilishidan ko'zlangan maqsad nima, degan savol tug'ilishi tabiiy. Hozirgi kunda gosptalda tibbiy xizmat ko'rsatish faoliyati to'liq raqamlashtirilgan bo'lib, mijozlar shifo maskanining Instagramdagi "Harbiytibbiyot", Telegram va Facebook'dagi "Harbiy tibbiyot" rasmiy sahifalaridan ma'lumotlar olishlari mumkin. Bundan ko'rinish turibdiki, mijozlar olis viloyatlardan Toshkentga kelmasdan, o'zlariga kerakli xizmat turlari bo'yicha boshlang'ich ma'lumotlar bilan tanishish imkoniyatiga ega. Bu bemorlarning sifatli davolanishi uchun dastlabki qadam.

Keyingi jarayon esa tashxis qo'yish aniqligi. Raqamli datchik va avtomatik o'lchash yordamida mazkur xizmat turi samaradorligini 15-30 foizgacha oshgani kuzatildi. Davolash vaqtining qisqarishi bemorlar uchun eng muhim jarayonlardan biri. Mijoz ma'lumotlari avtomatik ravishda EMIS/EMR dasturiga tushadi. Shifokor muolaja bo'yicha qarorni tez qabul qiladi va qayta-qayta tekshirishlar kamayadi. Mazkur jarayon bemorlar tuzalish vaqtini 20-40 foizga tezlashtiradi.

Yuqoridagi uchta omil bilan bemorning darddan forig' bo'lish jarayoni boshlab yuboriladi. Keyingi amalga oshiriladigan ishlar deyarli ko'pchilikka ma'lum. Bemorning holati real vaqtda raqamli texnologiya asosida jonlantirish va intensiv terapiya bo'limida tahlil qilib boriladi. Bu noto'g'ri doza hamda noto'g'ri yo'nalishning oldini olib, kasallik asoratlari va xatolarning 25-35 foizgacha kamayishini ta'minlaydi. Tibbiy xizmat ko'rsatish faoliyatida raqamlashtirilishning eng yuqori ko'rsatkichi shifokor va hamshira samaradorligida tashkil etilib, 30-50 foiz vaqt tejallishi amalda isbotini topgan. Kasallik varaqasining qo'lda yozilmasligi, avtomatik hisobot yuritilishi har bir bemorga ajratiladigan sifatli vaqtni ko'paytiradi. Qisqa qilib aytganda, bularning barchasi davolash natijasiga ijobiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Eng muhimi, bemor o'z yaqinlari bag'riga qaytayotganda kasallik varaqasining elektron nusxasi ambulator davolanish uchun o'zi yashaydigan hudud shifokoriga jo'natiladi.

"Ming marta eshitgandan ko'ra bir marta ko'rgan afzal" degan naqlga amal qilib, ijodiy guruhimiz bilan Markaziy harbiy klinik gosptaldagi raqamli

texnologiyalar faoliyati bilan yaqindan tanishdik. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari markazi boshlig'i podpolkovnik Odil Madatovning "Hammasiga bugun ulguramizmi?" deya xavotirlanganicha bor ekan. Yuqumli kasalliklar intensiv terapiya bo'limi boshlig'i tibbiy xizmat podpolkovnigi Narzulla Shirinboyev, plastik jarrohlik bo'limi boshlig'i tibbiy xizmat podpolkovnigi Valijon Abbosov, markaziy asab tizimi kasalliklari bo'limi katta ordinatori tibbiy xizmat mayori Mahmud Mustafoulov ishtirokida bemorlarni ertalabki nazorat tekshiruvi bilan kun deyarli yarimlab qoldi.

Ulgurganimizcha shifokorlarning IT dasturiga o'qitish, qabul va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish bo'limlaridagi, MRT hamda MSKT xizmati faoliyati bilan yaqindan tanishdik. To'g'risi, bemorlar uchun yaratilgan sharoit har bir insonning ko'zini quvontiradigan darajada. Qisqa qilib aytganda, katta muassasaning katta mas'uliyati, ya'ni inson sog'lig'iga e'tibor eng yuqori nuqtalardan biriga ko'tarilganiga guvoh bo'ldik.

A. RO'ZIBOYEV,
"Vatanparvar"



Texnologiya

SUN'IY INTELLEKT TA'SIRI



**“SI insoniyat uchun eng katta tahdidlardan biri bo‘lishi mumkin”.
Ilon MASK**

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining rivojlanib borishi natijasida sun'iy intellekt hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. U bizning vaqtimizni tejaydi, savollarga javob beradi, hatto ruhiy og'riq damlarda suhbatdosh bo'la oladi. Ammo bu texnologiyalarning foydali jihatlarini qanchalik ko'p bo'lmasin, uning inson ruhiyatiga salbiy ta'sirini inkor etib bo'lmaydi.

Mutaxassislar tomonidan “Google Play” va “APP Storey” qurilmalari tahlil qilinganda, 2025-yilning aprel oyida eng ko'p yuklangan ilovalardan biri ChatGPT ilovasi ekani ma'lum bo'ldi.

O'zbekistonda ham SI vositalaridan foydalanish keskin oshganini ko'rish mumkin. Masalan, 2025-yilning aprel oyida ChatGPT “Google Play” orqali o'zbekistonliklar tomonidan eng ko'p yuklab olingan ilova bo'lsa, “Apple” qurilmalaridan foydalanuvchilar soni ikkinchi o'rinni egalladi.

OpenAI kompaniyasining bergan ma'lumotiga ko'ra, ChatGPTdan haftasiga **800 milliondan** ortiq inson foydalanadi, demak, har hafta millionga yaqin kishi ChatGPTga bog'lanib qolgan.

Kompaniya tomonidan berilgan statistikasiga ko'ra:

- foydalanuvchilarning 0,15 foizi ChatBotga hissiy jihatdan haddan tashqari bog'lanib qolgani;

- 0,07 foizida esa psixoz (*insonning voqelikni to'g'ri idrok qila olmasligi*) yoki maniya (*ruhiy hayajonning kuchayishi*) kabi ruhiy buzilish belgilari kuzatilgan.

Bundan OpenAI kompaniyasi sun'iy intellekt orqali muloqotlarning xavfli signallarini aniqlash hamda foydalanuvchini psixologik yordam manbalariga yo'naltirish tizimi mavjudligini ko'rish mumkin.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, katta til modellari (*LLM*) – masalan, ChatGPTdan uzoq vaqt davomida foydalanish, ayniqsa yoshlarning aqliy faollik va fikrlash qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tadqiqotchi Nataliya Kosminaning “Time” nashri bilan olib borgan suhbatida “Bu tadqiqotni to'liq ilmiy tahrirdan o'tkazmasdan oldin e'lon qilishimga sabab yaqin kelajakda qaysidir siyosatchi chiqib, **“ChatGPTni bolalar bog'chasidan boshlab o'rgatamiz”** deb aytishidan xavotirdaman. Menimcha, bu juda noto'g'ri va zararli bo'ladi. Rivojlanayotgan miyalar eng katta xavf ostida”, deb ta'kidlashi bugungi kunda sun'iy intellektning inson uchun zararli ekanini ko'rsatadi.

Amerikalik tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, sun'iy intellekt muntazam foydalanish insonning mustaqil fikrlash, ijodiy yechim topish va murakkab muammolarni hal qila olish qobiliyatini susaytirishini ko'rsatadi.

Oxirgi ikki yil davomida G'arb davlatlari olimlari tomonidan olib borilgan bir qancha tadqiqot ishlari natijasida sun'iy intellekt insonlarning fikrlash qobiliyatini oshiradi degan aniqlik va ishonchli xulosa keltirilmagan.

Aksincha, ba'zi olimlar odamlar o'z kuchi bilan o'rganishni to'xtatishi, miyadagi faol aqliy jarayonlar sekin-asta susaya boshlashini ta'kidlab kelmoqda.

2025-yilning birinchi dekasida Massachusets texnologiya instituti olimlari sun'iy intellektning o'rganish, fikrlash va eslab qolish qobiliyatiga qanday ta'sir qilishi haqida batafsil ma'lumot beruvchi tadqiqot natijalarini e'lon qildi. Unga ko'ra, tadqiqotchilar **54 nafar** talabani to'pladi va ularning qobiliyatlarini insho yozish bo'yicha bir qator topshiriqlar yordamida kuzatdi. Guruhlar **uchga** bo'lindi: **birinchi guruhga** ChatGPT va boshqa katta til modellaridan (*LLM*) foydalanishga ruxsat berildi, **ikkinchi guruhga** Google'dan foydalanishga ruxsat berildi va oxirgi uchinchi guruh tadqiqot uchun ma'lumotlarni to'plashda faqat miya usullariga tayanishiga to'g'ri keldi.

Ishtirok etayotgan talabalarning kognitiv qobiliyatlari elektroensefalogramma, ya'ni miya

faoliyatini tekshirish uchun miyadagi eleatrimpulslarni yozib oladigan diagnostika usuli yordamida miyaning qaysi qismida faoliyat buzilishi, funksional o'zgarishlar (*stress, charchoq, uyqu buzilishi*) kabi kuzatish ishlari olib borildi, natijasiga ko'ra, sun'iy intellekt vositalaridan foydalanadigan va foydalanmaydigan talabalar o'rtasida sezilarli darajada farqni ko'rsatdi. Xususan, **birinchi guruhga** mansub talabalarda **ikkinchi va uchinchi guruh** talabalariga qaraganda miya faoliyati cheklangan va xotira qobiliyati sustroq ekani, miyaning ishlash tarzida buzilishlar mavjudligi kuzatilgan.

Bundan tashqari, OpenAI kompaniyasi MIT Media Lab bilan hamkorlikda o'tkazilgan ilmiy tadqiqot davomida ChatGPTning inson hissiyotlariga ta'siri bo'yicha ilk yirik ilmiy tajriba bo'lib, natijalari juda qiziqarli va biroz xavotirli ekani ko'zga tashlangan.

Tadqiqot davomida **40 millionga yaqin** foydalanuvchi bilan bo'lgan

SUN'IY INTELLEKTNING YARATILISHIGA OID MA'LUMOT

Alan Turing 1950-yillarda zamonaviy kompyuter faniga asos soldi va ilk bor mashinalarning mustaqil fikrlashi mumkinligini ilmiy asosda ko'rsatdi. 1956-yilda esa Jon Makkarti “sun'iy intellekt” atamasini fanga kiritdi. Oradan ikki yil o'tib, u Massachusets texnologiyalar institutida ilk SI loyihasiga asos soldi. Ana shu davrdan sun'iy intellekt tadqiqotlariga katta umidlar bog'lana boshlandi. Ammo bu umidlar uzoqqa cho'zilmadi. Cheklangan texnologik imkoniyatlar, sust natijalar va katta mablag' talab etilishi tufayli, sun'iy intellekt tadqiqotlari birinchi bor “SI qishi”ga duch keldi. Lekin 1990-yillarga kelib vaziyat keskin o'zgara boshladi. Mashinani o'rganish (*machinelearning*) va tabiiy tilni qayta ishlash (*NLP*) sohasida erishilgan yutuqlar sun'iy intellektga yana e'tibor qaratilishiga sabab bo'ldi.

1997-yilda IBMning “Deep Blue” superkompyuteri shaxmat bo'yicha jahon chempioni Garri Kasparovni mag'lub etdi. Bu katta voqea edi. Keyinchalik esa “Oracle” nomli SI tizimi mashhur “Jeopardy!” o'yinida inson raqiblarini ortda qoldirdi. Yirik texnologik o'zgarishlar, xususan katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash imkoniyati, kuchli hisoblash tizimlari va takomillashgan algoritmlar yangi SI davrini boshlab berdi.

2015-yilda Sem Altman va Ilon Mask SIni xavfsiz va ochiq holda rivojlantirish maqsadida OpenAI ni (*ochiqlikka asoslangan sun'iy intellekt*) tashkil etdi. Ular sun'iy intellektning ijobiy imkoniyatlaridan tashqari, xavf-xatarlarini ham jiddiy ko'rib chiqqan. OpenAI dastlab SI vositalarini o'rgatish uchun ochiq platformalar – OpenAIGym va Universe'ni ishlab chiqdi.

2018-yilda esa sun'iy intellekt tarixida yangi sahifa ochildi – GPT (*Generative Pretrained Transformer*) konsepsiyasi taqdim etildi.

GPT – bu inson miyasiga o'xshash ishlovchi, oldindan o'rgatilgan neyron tarmoq. U minglab kitoblar, maqolalar, veb-sahifalar asosida o'zlashtirish orqali matnlarni tushunish va yaratish qobiliyatiga ega. Dastlabki model – GPT-1 BookCorpus asosida o'qitilgan. Keyin GPT-2 yaratildi, u 1,5 milliard parametrga ega bo'lib, yanada kuchli edi. Ammo uning imkoniyatlari tufayli OpenAI bu modelni ommaga darhol taqdim etishga jur'at eta olmadi – sababi SI noto'g'ri qo'llanilsa, yolg'on yangiliklar yoki fribgarlikda foydalanilishi mumkin edi.

Keyinchalik OpenAI GPT-3 ni taqdim etdi – u 175 milliard parametrga ega bo'lgan va 45 terabayt matn asosida o'qitilgan ilg'or til modeli edi. Misrosoft bu model uchun 285 000 protsessor yadrosi va 10 000 ta GPUdan iborat superkompyuter yaratdi. Aynan shu platforma asosida 2022-yilda ChatGPT chat-boti ishlab chiqildi.

yo'zishmalar o'rganib chiqilgan. O'rganish orqali odamlarning ChatBot bilan muloqot qilganda qanday ruhiy holatda bo'lishi – baxtli, baxtsiz va hafsalasiz, yolg'iz va boshqa shunga o'xshash holatlari tahlil qilib borilgan.

Keyingi bosqichda esa **mingga yaqin** odam to'rt hafta davomida kuzatilgan. Odamlarning ChatGPTdan muntazam foydalanishi ularning hissiy dunyosiga, yolg'izlik darajasiga va ijtimoiy aloqalariga qanday ta'sir qilgani o'rganildi. Natijada esa ayrim foydalanuvchilar har kuni yarim soatdan ortiq vaqt davomida ChatGPT bilan suhbatlashgan. Bu oddiy maslahatlar emas, balki hissiyotlar, dardlar, shaxsiy kechinmalar, muammolar bilan bo'lishish holatlari bo'lgan. Eng qiziq tomoni shundaki, ChatGPT ko'pincha foydalanuvchining ruhiy holatiga mos kayfiyatda javob bergan. Ya'ni kimdir tushkun holatda yozsa, ChatGPT ham shunday ruhda muloqot qilgan. Bu esa bir turdagi “aks sado”ni vujudga keltirgan – odamning kayfiyati sun'iy intellektga o'tgach, u yana o'sha kayfiyatni insonga qaytargan.

Bu jarayonda ko'proq ayollar ishtiroki kuzatilgan, ya'ni sun'iy intellekt muntazam foydalangach, ijtimoiy jihatdan o'zlarini yolg'izroq his qilganlarini bildirgan. Ayniqsa, ovozi muloqot qilganlar, xususan ChatGPTning qarshi jinsdagi ovozi orqali muloqot qilgan foydalanuvchilar, hissiy bog'lanib qolish holatlarini boshdan kechirgani aytiladi.

Shu bilan birga, OpenAI kompaniyasining bergan ma'lumotiga ko'ra, har haftada ChatGPT foydalanuvchilarining **0,15 foizi** o'z joniga qasd qilish rejalari borligi haqida suhbatlashgan.

Xulosa qilib aytganda, inson va texnologiya o'rtasidagi chegaralar tobora xiralashib borayotganini anglatadi. Shunday ekan, savol tug'iladi: sun'iy intellekt bizga taskin berayotgan do'stmi yoki inson aloqalarini almashtirib, yolg'izlikni chuqurlashtirayotgan xavfmi? Albatta, tadqiqotchilar sun'iy intellekt foydalanish bevosita zarar keltiradi, deya olmaydi. Aksincha, u ayrimlar uchun kerakli e'tibor va taskin manbai bo'lishi mumkin. Ammo ehtiyotkorlik zarur. Chunki sun'iy intellekt bilan hissiy bog'lanish haqiqiy inson aloqalari o'rnini egallay boshlasa, bu jamiyat uchun xavf tug'diradi.

**Podpolkovnik
Alimardon O'TAPO'LATOV,
Harbiy xavfsizlik va
mudofaa universiteti
Janubiy operativ qo'mondonlik
fakulteti kafedra boshlig'i**

Askar bo'lar yigitning mardi

SINOVLARDA TOBLANGAN MARDLAR

Millat borki, suyanadi mardlariga,
Erlar ila omon turar ona zamin.
Siz tayyorsiz xizmatning ming shartlariga,
Dilda shiddat, qadamlardan chaqnar chaqin.

Yurt himoyasi – oliy qadriyat. Uning tinchligi va hurligini asrash sharaflı burch. Sizga tanishtirmoqchi bo'lgan muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askarlar ilkidagi mana shu sharaflı burchini o'tayotgan Vatan himoyachilari. Ular bugun harbiy xizmat sinovlarida toblangan, o'ziga bo'lgan ishonchi ortgan, oldiga qat'iy maqsad qo'ygan olovqalb o'g'lonlar.

“Albatta, ofitser bo'laman!”



Andijon viloyatining Izboskan tumanidan muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan oddiy askar Umarjon Abdulfaxizov safdoshlari orasida o'z o'rni, o'z so'ziga ega posbonlardan. Albatta, bunday e'tirofga erishish uchun ilkidagi burchni namunali ado etish bilan birga safdoshlari bilan do'stona munosabatda bo'lish, kerak chog'da ularga yordam qo'lini cho'zish, sinovlarda yelka tutish katta ahamiyat kasb etadi.

Farzandlar kamolida oilaning o'rni muhim. Oiladagi uch o'g'ilning to'ng'ichi bo'lgan Umarjondagi ezgu xislatlar, g'ayrat va shijoat ham ota-ona tarbiyasi va o'g'itlarining mevasidir. Bu borada o'g'illarini posbonlar safida qad rostlashiga zamin yaratgan Umidjon aka va Muniraxon opaning fidoyiligini ta'kidlash joiz.

– Bolaligidan ota-onam sport to'garagiga bergan, sog'lom va baquvvat bo'lib ulg'ayishim uchun harakat qilgan, – deydi Umarjon shu haqda so'z ketar ekan. – Sportning karate turi bilan shug'ullanganman. Ustozim sport ustasi Mirzohidjon Nazarov boshchiligidagi bir qator yutuqlarni qo'lga kiritganman. Viloyatdagi sport musobaqalarida ishtirok etib, besh marotaba g'alaba qozonganman. O'smir yoshlar o'rtasida o'tkazilgan respublika chempionatida 2-o'ringa sazovor bo'lganman. Sport bilan shug'ullanib, jismonan chiniqqanligim askarlar safida bo'lishimda katta o'rin tutdi. Harbiy xizmatda ko'p narsaga erishdim. Vatan posboni bo'lishdek sharafiga ega bo'ldim. Nazariy va amaliy mashg'ulot sinovlarida har tomonlama toblandim. Buning uchun komandirlarimdan minnatdorman. Eng asosiysi, oldimga ofitser bo'lishdek ulug' maqsad qo'ydim. Bobom bolalik chog'imdan boshlab ofitser bo'lishimni orzu qilgan. Xizmat davomida bobomning orzusini tushunib yetdim va maqsadga erishish uchun harakat qilyapman. Xizmatdan bo'sh paytlari oliy harbiy ta'lim dargohiga kirish uchun tayyorgarlik ko'ryapman. Umid qilamanki, niyatimga yetaman, albatta ofitser bo'laman!

Intilganga omad yor deyishadi. Muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Umarjon Abdulfaxizov kelajakda ofitserlar safida bo'lishiga ishonamiz. Zero bilimdon va shijoatli yigitlarga Vatan himoyachisi bo'lishdek sharaflı burch yarashadi.

Orzulari yuksak posbon



Muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askarlar bilan suhbat jarayonida bir haqiqatga amin bo'ldim. Ya'ni posbon yigitlarning deyarli barchasi o'quvchilik davridan boshlab sport bilan shug'ullangan, musobaqalarda ishtirok etib, ma'lum yutuqlarni qo'lga kiritgan. Oddiy askar Botirjon G'ofurov ham xuddi shunday. Keling, uning so'zlariga quloq tutamiz.

– Oiladagi to'rt farzandning kattasi bo'lganim uchun ota-onam va singillarimga tayanch bo'lish mas'uliyati bilan ulg'ayganman. Yaxshi o'qish, harakatchan va jismonan baquvvat bo'lishga intilganman, sport bilan shug'ullanganman. Sport murabbiyi Oybek Mamajonov boshchiligidagi bir qator yutuqlarga ega bo'lganman.

Askarlik majburiyatimga to'xtaladigan bo'lsam, harbiy xizmat davomida sinovlarda toblandim, mashg'ulotlarni talab darajasida o'zlashtirishga harakat qildim, do'stlar orttirdim. Vazifamga doir barcha ko'nikma va talablarni mukammal egallashga intildim hamda bunga erishdim, deb o'ylayman. Chunki muddatli harbiy xizmatning sinovlarga boy ko'p qismi ortda qoldi. Ayni damda barchamizning o'zimizga bo'lgan ishonchimiz mustahkam, oldimizga qo'ygan maqsadga erishish uchun harakat qilyapmiz.

Safdosh do'stlarim oddiy askarlar Abdulhamid Aliyev va Ali Imomov bilan dunyoqarashimiz, orzularimiz mushtarak. Ya'ni qaysi sohada xizmat qilmaylik, mamlakatimiz rivojiga ulush qo'shadigan bilimdon va g'ayratli insonlar bo'lish. Mening oldimga qo'ygan asosiy maqsadim – harbiy xizmatni kontrakt bo'yicha davom ettirib, kelajakda Davlat xavfsizlik xizmati akademiyasiga o'qishga kirish. Vatanimiz tinchligi, hurligi va daxlsizligini asrashga hissa qo'shish.

“Askarligim – faxrim”



Muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askarlar davrasida bo'lganimizda guruh komandiri II darajali serjant Zohidjon Xudoyberdiyev posbonlarning har biriga alohida urg'u berib o'tdi. Xususan, Andijon viloyatining Buloqboshi tumanidan muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan Zikrillo Anazarov haqida quyidagicha fikr bildirdi:

– Oddiy askar Anazarov kamtar, intiluvchan, bilimdon posbonlardan biri. Vazmin va mulohazali, berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida vijdonan bajarishi bilan ajralib turadi. Nazariy va amaliy sinovlarda yuqori natijalarni qo'lga kiritib kelyapti. Safdoshlari orasida o'z o'rni va maqsadiga ega. Kelajakda tadbirkor bo'lishni niyat qilgan bu posbon vatanparvarlik tuyg'usi yuqori. U kelajakda qaysi sohada faoliyat yuritisa ham, yurti uchun fidoyi insonlar safida bo'lishiga ishonaman.

Darhaqiqat, inson Vataniga bo'lgan muhabbatini har jabhada yuzaga chiqarishi mumkin. Negaki, mamlakat istiqboli barcha sohada mujassam. Muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Zikrillo Anazarov ham kelgusida el-yurtim deb yonib yashayotgan jonkuyar insonlar safida bo'lsa, ajabmas.

Suhbat chog'ida askarligim – faxrim, deya posbonlik burchi bilan g'ururlangan lavhamiz qahramoni beshinchi sinfdan boshlab futbol to'garagiga borganidan voqif bo'ldik. Ko'p yillar viloyat futbol musobaqalarida ishtirok etib, yuqori o'rinlarni qo'lga kiritgan. Aytmoqchimizki, sportda chiniqqan yigit harbiy mashg'ulot sinovlarida ham oldingi safda bo'lishi tayin. Millat istiqboli bo'lgan Zikrillo kabi o'g'lonlarimizga omad yor bo'lishini tilab qolamiz.

Maqsadi – biznesmen bo'lish



Maqolamiz davomida askar o'g'lonlarimizning deyarli barchasi o'quvchilik davridan boshlab sport bilan shug'ullanganiga urg'u berib o'tgandik. Muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Ro'zimuhammad Omonov ham yoshligidan sport to'garaklarida karate, boks, milliy kurash va dzyudo bilan muntazam shug'ullanganini ta'kidlab o'tdi. Shunday ekan, tuman va viloyat musobaqalarida qatnashib, ma'lum yutuqlarni qo'lga kiritganiga shubha yo'q. Biz Ro'zimuhammadning harbiy xizmat davomida erishgan yutuqlariga qiziqdik. Bu borada uning fikri qanday, eshitamiz.

– Askarlik burchimizni o'tayotganimizga o'n oydan oshdi. Harbiy xizmatning dastlabki oyidagi moslashuv jarayoni, xizmat ko'nikmalarini o'zlashtirish sinovlari barchamizning irodamizni tobladi. Men uchun hayotimga muhrlanib qolgan davr bo'ldi, desam, yanglishmayman. Chunki Vatanga qasamyod onlari barchamiz uchun faxrli va unutilmas lahzalar bo'ldi. O'sha ondan boshlab men va safdoshlarim o'zimizga bo'lgan ishonch bilan qat'iy harakat qildik. Nazariy va amaliy sinovlarda yetakchi bo'lishga intildik. Safdosh do'stlarim Asadbek Ibrohimov, Dadaxon Rasuljonov va Muhammadyusuf Abdullayev bilan sinovlarda yelkadosh bo'lib, yutuqlarni qo'lga kiritib kelyapmiz.

Shubhasizki, hammamizdan ota-onamizning umidi katta. Shu sabab barchamiz askarlik burchimizni yaxshi o'tab, yaqinlarimiz oldiga yorug' yuz bilan qaytib, oldimizga qo'ygan maqsad sari dadil intilishga bel bog'laganmiz. Men yurt rivojiga katta ulush qo'shadigan biznesmen bo'lishni niyat qilganman. Buning uchun oldimga qo'ygan o'z rejalarim bor. Muddatli harbiy xizmat o'tayotgan barcha safdoshlarimning o'ziga bo'lgan ishonchi mustahkam bo'lishida askarlik maktabining o'rni yuksak ekanini ta'kidlashni istardim. Barchamizning saboqlarda toblangan shiorimiz bitta: “Sinovlarda ortga chekinmaslik, faqat olg'a intilish!”

Zulfiya YUNUSOVA,
“Vatanparvar”

Tahdid

AXBOROT-PSIXOLOGIK XURUJLAR



Axborot-psixologik xurujlardan himoya qilish mexanizmlari:

media savodxonlikni oshirish, manbani tekshirish, fakt va fikrni farqlash; axborotning maqsadini aniqlash, manipulyativ texnikalarni bilish;

tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, analitik vazifalar, munozara madaniyati; mantiqiy fikrlash mashqlari;

raqamli gigiyena va onlayn xavfsizlik, vaqtni nazorat qilish, shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash, xavfli platformalardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish;

oila va maktabning roli sifatida ochiq muloqot, yoshlarning onlayn faoliyatini nazorat qilish, ma'naviy tarbiya va milliy qadriyatlarni mustahkamlash;

davlat va jamiyat mexanizmlari, dezinformatsiyaga qarshi markazlar, psixologik yordam xizmatlari, yoshlar uchun sog'lom media kontent yaratish, internet platformalar bilan hamkorlik.

Xulosa qilib aytganda, axborot-psixologik xurujlar bugungi kunda yoshlarning ongiga eng kuchli ta'sir ko'rsatadigan global tahdiddir. U ijtimoiy tarmoqlar, virtual guruhlar, dezinformatsion kanallar orqali keng tarqalib, yoshlarning psixologik, kognitiv, ijtimoiy va mafkuraviy holatiga sezilarli darajada zarar yetkazishi mumkin. Shu bois davlat ta'lim muassasalari, ota-onalar, psixologlar va jamiyatning o'zaro hamkorligi asosida yoshlarni axborot-psixologik tahdidlardan himoyalash mexanizmlarini takomillashtirish muhimdir. Eng asosiy omil – yoshlar ongida to'g'ri axborotni tanlash immunitetini shakllantirish, mustaqil va tanqidiy fikrlay oladigan, raqamli madaniyatga ega bo'lgan avlodni tarbiyalashdir.

Bunga yechim sifatida:

birinchidan, o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonlariga "Media savodxonlik" darslarini joriy etish;

ikkinchidan, yoshlar uchun psixologik yordam bera olish imkoniyatiga ega bo'lgan onlayn xizmatlarni kengaytirish;

uchinchidan, yoshlar tarbiyasida ota-onaning o'zini va rolini oshirish;

to'rtinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda zararli kontentni filtrlovchi mexanizmlardan foydalanish;

beshinchidan, o'zligimizni anglash va boy tariximizga asoslangan milliy qadriyatlarimizni targ'ib qiluvchi sifatli kontentlar yaratish va ommalashtirish;

oltinchidan, bugungi kun yoshlarini turli yo'nalishdagi ilmiy-amaliy to'garaklar, sport va madaniy loyihalar bilan qamrab olish;

yettinchidan, blogger va kontent yaratuvchilar bilan hamkorlikda yoshlar uchun xavfsiz axborot makonini shakllantirish;

sakkizinchidan, Vatanni sevis, uni ardoqlash hamda uni so'nggi qoni qolungacha qadar himoya qilishga qaratilgan qisqa metrajli film hamda videomahsulotlar sonini ko'paytirish;

to'qqizinchidan, yoshlarda buyuk ajdodlarimiz vorislari sifatida faxrlanish hissini yanada oshirish.

Podpolkovnik F. UMMATQULOV,
Harbiy xavfsizlik
va mudofaa universiteti
katta o'qituvchisi, PhD

Bugungi kunda zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida axborot maydoni milliy xavfsizlikning eng sezgir komponentlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Jumladan, zamonaviy internet texnologiyalari, mobil aloqa, turli ko'rinishdagi ijtimoiy tarmoqlar, tezkor xabar almashish vositalarining jadal rivoji bugun yosh avlodning ongiga kuchli ta'sir ko'rsatayotgani hech kimga sir emas. Bu jarayonda esa axborot-psixologik xurujlar, ya'ni maqsadli ravishda dezinformatsiya, manipulyatsiya, tashviqot yoki psixologik bosim orqali yoshlar ongini o'zgartirishga qaratilgan axborot operatsiyalari eng xavfli tahdidlardan biriga aylanmoqda.

yoshlar ongini turli maqsadlardagi axborot xurujlariga nisbatan sezgir qilib qo'ymoqda. Bu jarayon psixologik, ijtimoiy-madaniy va axborot texnologik omillar bilan bog'liq.

Quyida ushbu sezgirlikning asosiy omillari ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida yoritiladi.

Psixologik omillar – fiziologik va psixik rivojlanish bosqichlarida 14–25 yosh oralig'i shaxsiy identitet shakllanishi, dunyoqarash va qadriyatlar mustahkamlanishi bosqichi hisoblanadi.

Bu davrda emotsional beqarorlik, ta'sirchanlik, yangi taassurotlarga ochiqlik, yuqori darajada qiziqish va izlanishlardan foydalanib manipulyativ axborotga ta'sirchanlikni oshiradi.

Ijtimoiy-psixologik omillar – guruhviy bosim, ya'ni yoshlar, do'stlar, tengdoshlar fikriga yuqori darajada bog'liq.

Ijtimoiy-madaniy omillar – oila nazoratining susayishi, ota-ona aralashuvining minimallasuvi va boshqalar.

Raqamli texnologik omillar – ijtimoiy tarmoqlar algoritmlarining manipulyativ tabiati reklama, tavsiya algoritmlari, filtr pufakchalari yoshlarni biryozqlama kontentga qamab qo'yadi.

Emotsional va axborot bo'shliqlari – bo'sh vaqtning ko'pligi natijasida yoshlar vaqtining katta qismini internetda o'tkazadi. Bu esa zararli axborot bilan to'qnash kelish ehtimolini oshiradi.

Axborot-psixologik xurujlarning asosiy tarqalish kanallari

Ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar, global va mahalliy platformalar – Facebook, Instagram, TikTok, Twitter, YouTube, Telegram, WhatsApp va boshqa shunga o'xshash tarmoqlar manipulyativ axborotning eng tez tarqaladigan manbalaridir.

Uning yoshlar ongiga asosiy ta'sirlari

Psixologik ta'sirlar – stress, xavotir, depressiv holatlar, o'zini past baholash, boshqalar bilan taqqoslash, emotsional tebranishlar, impulsiv xatti-harakatlar.

Kognitiv ta'sirlar – fikrlar chalkashishi, haqiqatni ajrata olmaslik, tanqidiy fikrlashning susayishi, fikrga bog'lanib qolish, o'z qarashini o'zgartira olmaslik.

Ijtimoiy ta'sirlar – jamoadan ajralib qolish, oilaviy va do'stlik munosabatlarining yomonlashuvi, onlayn guruhlariga qaramlik.

Mafkuraviy ta'sirlar – yot mafkuralar va ekstremistik g'oyalarga moyillik, milliy qadriyatlardan uzoqlashuvi, G'arbga oid "omma psixologiyasi"ni qabul qilish.

Xulq-atvor darajasidagi ta'sirlar – internetga qaramlik, agressiv yoki zo'ravonlikka moyillik, o'qishga bo'lgan qiziqishning pasayishi.

Axborot xurujlarining oqibatlari Qisqa muddatli oqibatlar – chalg'ish, diqqatning pasayishi, noto'g'ri qarorlar qabul qilish, vahima yoki noto'g'ri xulosalar.

Uzoq muddatli oqibatlar – qadriyatlar tizimining buzilishi, ijtimoiy radikallasuv yoki ekstremistik fikrlash, ruhiy salomatlik muammolari, ma'naviy bo'shliq va identitet inqirozi.



Boburiylar saltanatida merganlar

“Boburnoma”da Boburning yoshligidan boshlab kamon otish, qilichbozlik va merganlik san'atiga qiziqqani ko'p marotaba qayd etiladi. U Farg'ona va Samarqand uchun bo'lgan janglarda o'z merganlik mahoratini amalda namoyon etgan. Tarixchi Abdurahmon Jomiyning yozishicha, Bobur janglarda o'zi ham o'q otishda ishtirok etgan, hatto ayrim dushman qo'mondonlarini uzoqdan nishonga olgan.

Shu bois Bobur qo'shinida merganlar alohida tayyorlanar, ular jang maydonida tezkorlik, aniqlik va sabr-toqat bilan ajralib turar edi.

BOBURIYLAR QO'SHINIDA MERGANLAR

Boburiylar armiyasi turli millat vakillaridan – turk, o'zbek, fors va hind jangchilaridan tuzilgan bo'lib, ular orasida kamonli va miltikli merganlar alohida o'rin egallagan. Boburiylar merganlarining vazifasi nafaqat dushmanni yo'qotish, balki jangning yo'nalishini boshqarish ham edi.

Merganlar ko'pincha qal'a mudofaasi yoki dushman otliqlarini uzoqdan yo'qotish uchun joylashtirilgan. Shuningdek, Boburiy qo'shinlarida merganlar otliq va piyoda merganlarga bo'lingan.

OTLIQ MERGANLAR

Otliq merganlar (*savrandoz* va *kamondor otliqlar*) deb atalgan. Ular Boburiylar armiyasining eng tezkor va moslashuvchan qismi bo'lgan. Ot ustida harakatlanib, kamon yoki tufang (*fitilli miltiq*) yordamida dushmanga o'q uzishgan. Boburning sarkardalari bunday otliq merganlarni “*savrandoz*” yoki “*javonmard*” deb atagan.

Jangdagi roli:

qanotlardan hujum: otliq merganlar dushmanning qanotlarini o'rab, uzoqdan o'qqa tutgan;

chekinayotgan dushmanga zarba: dushman orqaga chekinganda, otliq merganlar ularni quvib, nishonga olgan;

razvedka va xabarchilik: ular tezkorligi sababli razvedka ishlarida ham ishtirok etgan.

PIYODA MERGANLAR

Boburiy piyoda merganlar asosan fitil miltiq (*tufang*) bilan qurollangan jangchilar edi. Ular jangning old chizig'ida emas, balki orqa qatorda joylashib, uzoq masofadan aniq zarba bergan. Bu jangchilar turkiy, afg'on va hind zodagonlari orasidan tanlab olingan.

Jangdagi roli:

dushman otliq qismlarini to'xtatish: ularning aniq o'qlari dushman otliqlarini yo'qotishga yordam bergan;

mudofaa chizig'ini qo'llab-quvvatlash: piyoda merganlar qal'a yoki istehkomlarni himoya qilishda muhim rol o'ynagan;

artilleriya bilan hamkorlik: ko'p hollarda ular to'pchilar bilan birga joylashib, dushman piyoda va otliq kuchlarini nishonga olgan.

HARBIY ISLOHOTLARDA MERGANLAR O'RNI

Bobur o'z davrida Temuriy va turk uslubini o'zbekona jang san'ati bilan uyg'unlashtirib, harbiy tizimga o'qchi va miltiqchilarni majburiy tarzda kiritgan.

Uning o'g'li Humoyun va nevarasi Akbar davrida bu tizim yanada takomillashgan. Akbar davrida merganlar alohida “tufangchi korpusi” sifatida qayd etilgan. Har bir katta sarkarda o'z tarkibida otliq va piyoda merganlar bo'lishi shart bo'lgan.

Ular maxsus mashg'ulotlardan o'tgan, “o'qni 100 qadamda nishonga tegizish” mezonini qo'llanilgan.

Boburiylar saltanatida merganlar taktikasi quyidagicha bo'lgan:

- yarim doira yoki yoy shaklidagi joylashuv orqali dushmanni o'rab olish;

- navbat bilan o'q uzish (*birinchi qator o'q uzar, ikkinchi qator zaryadlar*);

- tezkor joy almashtirish dushmanni yo'naltirilmagan o't ostiga olib kelgan.

Bu jihatlar zamonaviy mergan taktikalarining erta shakllanishiga olib kelgan.

AKBAR DAVRIDA MERGANLIK SAN'ATINING YUKSALISHI

Akbar podsho davrida (1556–1605) otashin qurollar keng joriy etildi. Shu davrda “banduqchi” deb atalgan miltikli merganlar paydo bo'ldi. Ular fitilli miltiq (*matchlock*) bilan qurollangan bo'lib, aniq otish texnikasi bo'yicha o'qitilgan.

Tarixchi Abu'l-Fazlning “Ain-i Akbari” asarida Akbar qo'shinidagi merganlar haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Ularning maoshi, mashg'ulot va qurol turlari davlat tomonidan belgilangan.

Merganlar janglarda dushmanni uzoq masofadan yo'qotish orqali og'ir qurollarning yo'lini ochib bergan. Ayniqsa, Panipat, Chitor va Gujarat janglarida merganlarning roli hal qiluvchi bo'lgan.

MERGANLIK AN'ANASI

Boburiylar saltanatining so'nggi davrlarida ham merganlik san'ati saqlanib qolgan. Hatto XIX asr boshlarida ingliz manbalarida “Hindistonlik mohir merganlar” haqida qaydlar uchraydi. Boburiylar saltanatida merganlik an'anasi keyinchalik ham Hindiston, Pokiston va Afg'oniston harbiy madaniyatiga ta'sir ko'rsatganini ko'rsatadi.

Boburiylar saltanatida merganlik san'ati bugungi zamonaviy snayperlik tizimlarining ma'naviy ildizlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Boburiylar saltanatida merganlar nafaqat jangchi, balki harbiy strategiyaning muhim unsuri bo'lgan. Ular o'z davrining “snayperlari” bo'lib, janglarda tezkorligi va intizomi bilan ajralib turgan. Boburdan boshlangan merganlik madaniyati Akbar va keyingi podshohlar davrida rivojlanib, otashin qurollarning joriy etilishi bilan yangi bosqichga ko'tarilgan. Bu an'ana Sharq harbiy san'atida chuqur iz qoldirib, zamonaviy merganlikning tarixiy ildizlarini tashkil etgan.

Kapitan Behruz ABDURAHIMOV,
Mudofaa vazirligi Merganlar
tayyorlash markazi katta o'qituvchisi



Xorij armiyasi



AQSH

HAVO-DESANT QO'SHINLARINI JANGOVAR QO'LLASH KONSEPSIYASI

AQSh havo-desant qo'shinlari armiyaning yuqori harakatchan, eng sara qo'shin turi bo'lib, uning tarkibiga dushman fronti ortiga havo (*samo*) orqali yetkazilishi va uning ichki sarhadlarida faol harbiy harakatlar olib borishga mo'ljallangan yengil qurollangan piyodalar qo'shilmalari, harbiy qismlar va bo'linmalari kiradi.

AQSh havo-desant qo'shinlari Yer sayyorasining istalgan nuqtasida eng yuqori tezlik bilan o'z mohiyatiga ko'ra, jangovar vazifalarni bajarish uchun tayyorlangan. AQSh havo-desant qo'shinlari jangovar harbiy qismlari uchun yagona cheklov mavjud bo'lib, bu cheklovni ularni jangovar vazifa hududiga yetkazishni ta'minlayotgan harbiy transport samolyotlari soni va yuk ko'tarish imkoniyatlari tashkil etishi mumkin.

AQSh havo-desant qo'shinlari tashkiliy jihatdan 18-havo-desant korpusiga birlashtirilgan bo'lib, bu korpus tarkibiga 4 ta diviziya hamda qo'llab-quvvatlovchi turli harbiy qism va bo'linmalar, **shu jumladan quyidagi tuzilmalar kiritilgan:**

- 82-havo-desant diviziya (*Fort-Bregg*);
- 101-havo-ishg'ol diviziya (*Fort-Kempbell*);
- 3-piyodalar diviziya (*Fort Styuart*);
- 10-yengil tog' diviziya (*Fort Dram*);

- 18-artilleriya brigada (*Fort-Bregg*);
- 108-HHM brigada (*Fort-Bregg*);
- 525-harbiy razvedka brigada (*Fort-Bregg*);
- 20-muhandislik brigada (*Fort-Bregg*);
- 35-aloqa brigada (*Fort-Gordon*);
- 16-harbiy politsiya brigada (*Fort-Bregg*);
- 1-ta'minlash guruhi (*Fort-Bregg*);
- 2-ta'minlash guruhi (*Fort-Knoks*);
- 20-RKBM guruhi (*Aberdin*);
- 1-manovrchan kuchaytirish brigada (*Fort-Polk*);
- 18-samoviy qo'llash brigada (*aerodrom Poup*).

Uzoq masofadagi harbiy harakatlar teatrida harakat olib borgan taqdirda, korpus zirhli tank diviziya bilan kuchaytirilishi mumkin.

18-havo-desant korpusi shtabi Fort-Breggda joylashgan. Shaxsiy tarkibining umumiy soni taxminan 88 ming kishini tashkil etadi.

Korpusning asosiy qurollari sirasiga mo'ljalga olish masofasini 3 000 m tashkil etadigan 105 mm.li barqarorlashtirilgan to'p o'rnatilgan "Stryker Mobile Gun System" jangovar mashinasi, "Bredli" piyodalar jangovar mashinasi, otish masofasi 40–57 km bo'lgan 155 mm.li shatakka olinadigan M777 gaubitsasi, 2 km.dan 300 km.gacha otish masofasiga ega M142 "HIMARS" rusumli birvarakay olov reaktiv tizimlari, "TOU" TQBR va boshqalar kiradi.

Korpus qo'shilma va harbiy qismlari Ikkinchi jahon urushi hamda Koreya, Vyetnam, Grenada, Panama, Fors ko'rfazi zonasidagi, Gati, Iroq va Afg'onistonda bo'lib o'tgan lokal urushlardagi jangovar harakatlarda ishtirok etgan.

AQSh armiyasi korpuslari orasida 18-havo-desant korpusi eng yuqori operativ sur'atlarga ega. Misol uchun, tasdiqlangan me'yorlarga asosan, havo-desant batalyoni 18 soatdan, brigada taktik guruhi – 96 soatdan, yengil diviziya – 120 soatdan keyin korpus esa to'la tarkibda 30 kun davomida belgilangan harbiy harakatlar teatrida yoyilgan bo'lishi lozim.

AQSh havo-desant qo'shinlarini (*jangovar*) qo'llash konsepsiyasi zahiriga "Birinci bo'lib ko'rdim, birinchi bo'lib qaror (*qabul*) qildim, birinchi bo'lib harakatlandim va qat'iy tarzda g'alaba qozona boshladim" tamoyili qo'yilgan.

AQSh Qurolli Kuchlarida mazkur tamoyilni tatbiq etish uchun havo-desant qo'shinlariga nisbatan quyidagi talablar ishlab chiqilgan:

- dunyoning istalgan mintaqasidagi keskin (*inqirozli*) vaziyatga mos harakatlarni zudlik bilan amalga oshirish;
- operativ mo'ljallanish hududlarida (*rayonlarida*) o'z vaqtida yoyilish;
- harakatlarning barcha darajalarida havo-desanti harbiy tuzilmalarining yuqori manyovrchanligi;
- qo'llanishning universalligi;
- tuzilmalarning har qanday harakatlarni muvaffaqiyatli olib borish uchun yetarli bo'lgan shikastlovchi (*talafot yetkazuvchi*) qudrati;
- jang maydonidagi sezilarli darajadagi yashovchanlik;
- uzoq muddatli harakatlarni olib borish qobiliyati.

Amerika havo-desant qo'shinlari Qo'shma Shtatlar milliy xavfsizligini ta'minlash vazifalarini, harbiy strategiyaning ehtimoliy o'zgarishlarini inobatga olib,

bajarishga yo'naltirilgan. Zarbalarni dushmandan oldinroq berish qobiliyatidan tashqari, havo-desant qo'shinlari tezkor va qat'iy operatsiyalarni o'tkazish, shuningdek quruqlikdagi qo'shinlar yoki bir necha turlarga oid kuchlarning yirik ko'lamli va uzoq muddatli mintaqaviy kampaniyalarini ta'minlab berish maqsadida dunyoning istalgan mintaqasiga tashlanishi mumkin.

Buning uchun diviziyalar tarkibida alohida brigada taktik guruhlar tuzilgan va ular taktik bo'g'indagi "bevosita harakatlar tuzilmalari" bo'lib qolmoqda. BrTGrlar operativ mo'ljallanish hududiga (*rayoniga*) yetib kelgandan so'ng qo'shimcha tayyorgarliksez ham bir necha kun (*sutka*) davomida mustaqil jangovar harakatlar olib borishga qodir.

Mazkur brigada (*taktik*) guruhlarini ajratib turuvchi xususiyatlaridan biri shundayki, ularning shtatida BrTGrlarning harakatlari avtonomligini ta'minlab beradigan qo'shin turlari bo'linmalari komplekti mavjud. BrTGrlarda qo'shinlar va qurollarni boshqarish, olov bilash talafot yetkazish, muhandislik ta'minoti, aloqa, razvedka va kuzatuvni ta'minlash, radiatsion, kimyoviy va bakteriologik razvedka olib borish va boshqalar bo'yicha imkoniyatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Brigada taktik guruhlari o'z shaxsiy tarkibini tashlashni (*tushirishni*) parashyut, qo'nish yoki aralash (*kombinatiyalashgan*) usullarda amalga oshirishga qodir bo'lib, jangovar texnikani esa bevosita aerodromlarning uchish-qo'nish yo'lagida tushira oladi.

Shu bilan birga, dushman fronti ortida uzoq muddatli harbiy harakatlar olib borish uchun og'ir qurol-yarog', zirhli texnika soni, moddiy vositalar zaxiralarining miqdori yetishmasligi AQSh havo-desant qo'shinlarining asosiy muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Shu tariqa AQSh havo-desant qo'shinlari qo'shilmalarining yuqori harakatchanligi (*mobilligi*) hamda Qurolli Kuchlarning boshqa turlari va qo'shin turlari bilan uyg'unlashuvi, ayniqsa hujum qilayotgan quruqlikdagi qo'shinlar bilan hamkorligining aniq (*samarali*) tashkillashtirilgani ularning asosiy ustunligi bo'lib turibdi.

Polkovnik R. XALILOV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa
universiteti
kafedra boshlig'i, dotsent



Mulohaza



TABIATNI ASRASAK, U HAM BIZNI SIYLAYDI

Ayni kunlarda jamoatchilikning poytaxtdagi havo sifati, uning odamlar salomatligi va hayotiga ta'siri bo'yicha xavotirlari ortib, keng muhokamalarga sabab bo'lyapti. Ayniqsa, bu holat bir necha o'n kundan beri davom etayotgani odamlarni xavotirga solyapti. Poytaxtimiz havo ifloslanishi bo'yicha xalqaro reytinglarda birinchilikdan tushmayotgani vaziyatning qanchalik jiddiy ekanidan dalolat beradi.

Tadqiqotlarga ko'ra, yurtimizda so'nggi besh yil ichida vaziyat yanada og'irlashgan. Iqlim o'zgarishi tufayli ilgari bunday hodisalar yiliga ikki-uch marta sodir bo'lar va uzoq davom etmas edi. Tashqaridan kelgan shamol massalari yo'nalishini o'zgartirdi va inversiya davomiyligi 10 kunga yetgan holatlar qayd etildi, bunday hodisalar chastotasi 5 baravar oshdi. 2021-yilning noyabr oyida poytaxtni meteokuzatuvlar tarixida birinchi marta qum-chang tumani qoplagan edi. O'shanda u bir necha kun saqlanib turgandi. Shundan so'ng iqlim o'zgarishi tufayli yuzaga kelgan salbiy hodisalar tez-tez namoyon bo'la boshladi.

Jumladan, "IQAir" portaliga ko'ra, joriy yilning 12-oktabr kuni Toshkent havosi birinchi o'ringa chiqib oldi. Oradan vaqt o'tgach, holat biroz yaxshilandi. Ammo xursandchilgimiz uzoqqa cho'zilmadi. 10-noyabr sanasidan yomonlasha boshlagan poytaxt havosi yana eng iflos shaharlar reytingida birinchi o'ringa chiqib oldi. Mutaxassislar bunday ob-havo sharoiti respublikamizning barcha hududlarida yana bir necha kun davom etishini ma'lum qilib, aholidan ehtiyot choralarini ko'rishlarini, imkon qadar ochiq havoda yurishni kamaytirish, tashqariga chiqqanda niqob taqish kerakligini tavsiya qildi.

Mintaqamizda ro'y berayotgan bunday ekologik noxush holatlarni bartaraf etish va tabiatga salbiy ta'sirlarni kamaytirish borasida mavjud vaziyatdan kelib chiqib, Prezidentimizning shu yil 24-noyabrda "Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni imzolandi. Farmonga ko'ra, poytaxtda ekologik muammolarni bartaraf etish va havo sifatini yaxshilash maqsadida maxsus komissiya tuzildi. Mavjud ekologik holatni e'tiborga olib, tezkor va muvofiqlashtirilgan harakatlarni amalga oshirish, havo ifloslanishining oldini olish maqsadida ekologik nazoratni

kuchaytirish va iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish bo'yicha tegishli vazifalar belgilandi. Jumladan, Toshkent shahrida qurilish maydonlari nazorati kuchaytirilishi, katta qurilish maydonlarida monitoring stansiyalari o'rnatilishi, uch oy muddatda shaharning to'rt yo'nalishi bo'ylab kamida uchtdan sun'iy ko'l va suv havzasi barpo etilishi belgilandi. Shu bilan birga, hukumatga ikki hafta ichida Toshkentdagi favvoralar sonini kamida ikki baravarga ko'paytirish bo'yicha alohida dastur ishlab chiqilib, taqdim etiladi.

Issiqxonalar bo'yicha nazorat keskin kuchaytirildi. Bir haftada issiqxonalarni tabiiy gaz bilan ta'minlash belgilandi. Shuningdek, 200 m².dan ortiq issiqxonalarda chang tarqatish va ekologik talablarni buzish bilan bog'liq qonunbuzilishlar uchun jarimalar oshiriladi, yoqilg'i yoqilishi holatlarida esa obyektlarni davlat foydasiga musodara qilishni nazarda tutuvchi jinoiy javobgarlik tartibi joriy etildi.

Toza havo monitoringi 2025-yilning oxirigacha atmosfera nazorati to'liq modernizatsiya qilinadi. 347 ta avtomatlashtirilgan stansiya xarid qilinib, "Air Monitoring Tashkent" tizimi Ekologiya qo'mitasi boshqaruvi o'tkaziladi va umummilliy "Air Monitoring Uzbekistan" platformasiga integratsiya qilinadi.

2026-yilning bahor hamda kuz mavsumlarida Toshkent shahrining 33 kilometr uzunligidagi kichik halqa yo'li bo'ylab "Yashil koridor" loyihasi amalga oshiriladi. 2026-yil 1-aprelgacha "Yashil Toshkent" master rejası ishlab chiqiladi. Toshkent shahrining barcha tumanlarida yashillik darajasi past bo'lgan 3 tadan uzunligi 5 kilometrdan kam bo'lmagan ko'chani tanlab olish orqali "Soyali sayr ko'cha"si tashkil qilinadi.

Shuningdek, tadbirkorlar va fuqarolar tomonidan maishiy havo tozalash uskunalari O'zbekiston hududiga olib kirilganda bojxona bojidani ozod etiladi. Shu bilan birga, Toshkent shahri havosini yaxshilash maqsadida ertalab va kunning o'rtalarida ko'chalarga suv seplimoqda. Yirik sanoat korxonalariga ogohlantirish xatlari yuborilib, filtrlar o'rnatish choralari ko'rilmogda, hatto ayrim korxonalar faoliyatini vaqtincha to'xtatildi. Ekologiya inspeksiyasi, ekologik politsiya va boshqa vakolatli organlar qurilish maydonlarida qattiq nazorat o'rnatgan. Qolaversa, shahar

bo'ylab yangi suv obyektlari, sun'iy suv purkagichlar o'rnatilmoqda.

Eski favvoralarni qayta ishga tushirish, yangi favvoralar qurish choralari ko'rilmogda. Bundan tashqari, Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi (ekopolitsiya) tomonidan tashkil etilgan ekologik nazorat tadbirlari tezkor guruh tomonidan amalga oshirilmoqda.

Jumladan, maxsus komissiya tomonidan Toshkent shahri va uning atrofidagi ifloslanish manbalarini bartaraf etish bo'yicha 24-29-noyabr kunlari kuchaytirilgan reytd tadbirlari o'tkazildi. Unga ko'ra, tadbirlar davomida 1 788 ta issiqxona o'rganildi va atmosfera zarari yetkazayotgan 73 issiqxona faoliyati to'xtatildi. 621 nafar shaxsga ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirilib, 19 ta xo'jalikka gaz tarmoqlariga ulanish bo'yicha texnik shartlar berildi.

Qurilish obyektlarida o'tkazilgan reydlar davomida Toshkent shahrida

53 ta, Toshkent viloyatida 477 ta noqonuniy qurilish obyektlari aniqlandi va atmosfera havosi ifloslantirilayotgan, qurilish obyektining 25 foizi ko'klamzorlashtirilmagan 40 ta obyekt faoliyati vaqtincha to'xtatildi. Shuningdek, atmosfera ifloslanishi holatlari bo'yicha 215 nafar shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilib, 54 ta qurilish obyektiga suv purkagich o'rnatildi.

Bundan tashqari, o'tkazilgan tadbirlarda yukni ochiq holda tashigan 1 959 ta va atmosfera me'yorida ortiq zarar yetkazgan 239 nafar haydovchi jarimaga tortildi. Maxsus komissiya tomonidan reytd tadbirlari davom etmoqda.

Nihoyat, olib borilgan chora-tadbirlar natijasida Toshkent shahri havosining ifloslanish darajasi birmuncha kamayishiga erishildi. Xususan, PM 2.5 mayda zarrachalarining o'rtacha miqdori 24-noyabr soat 18:00 holatiga 171 mikrogramm/metr kubga yetgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 25-noyabr kuni 152 mikrogramm/metr kubga, 26-noyabr kuni 140 mikrogramm/metr kubga, 27-noyabr kuni 111 mikrogramm/metr kubga, 28-noyabr kuni esa 97 mikrogramm/metr kubga kamaydi.

2-dekabr kuni havo sifatini monitoring qiluvchi xalqaro "IQAir" portalida 1-o'rinni egallab turgan poytaxtimiz 9-o'ringa tushdi. 3-dekabr kuni esa poytaxt havosi yanada tozalanib, 28-o'ringa pastladi. Ushbu xabarlarini eshitib, xavotirlarim biroz yumshagandek bo'ldi, erkinroq nafas ola boshladim. Ammo baribir xayolimning bir chetida "yana shunday holat kuzatilsa-chi?" degan hadik bor edi. Lekin muammoni bartaraf etish yo'lida ko'rilayotgan choralar, yuqoridagidek holatlar kuzatilmisligi uchun qilinayotgan rejalar jamiki xavotirlarimga nuqta qo'ydi.

Bir so'z bilan aytganda, shu taxlit davlatimiz tomonidan yurtimiz va mintaqamizda ro'y berayotgan bugungi og'ir ekologik vaziyatni barqarorlashtirish bo'yicha barcha choralar ko'rilmogda. Bu ishlardan maqsad xalqimizning sog'lom atrof-muhitda yashashga bo'lgan huquqini ta'minlash, kelajak avlodlarga musaffo, beg'ubor tabiat, ekologik sof muhitni meros qilib qoldirishdir. Bunday xayrli ishlar bardavom bo'lishi esa har birimizdan faollik va harakat, tabiatga oqilona yondashuvni talab etadi. Faollik ham aslida katta yumush emas. Yashash joyimizni obod etish, bir tup bo'lsa-da, nihol ekib, uni ulkan daraxtga aylantirish, chiqindini belgilangan joyga tashlash, suvni isrof qilmaslik kabi kichik amallarimiz tabiat sofligi uchun munosib hissamiz bo'ladi. Zero tabiatni asrab-avaylasak, u ham bizni siylaydi.

Leytenant Mansurbek JABBOROV,
"Vatanparvar"



Ijtimoiy himoya



HECH KIM

E'TIBORDAN CHETDA QOLMAYDI

Bugungi kunda respublikamizning eng olis hududlarida joylashgan harbiy qismlarda xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar hamda ularning oila a'zolarini har tomonlama ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, sog'lig'ini muhofaza qilish borasida izchil va tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa davlatimizning inson qadrini ulug'lashga qaratilgan siyosatining yaqqol ifodasidir.



Mudofaa va Sog'liqni saqlash vazirliklari o'zaro hamkorlikda Samarqand viloyatida joylashgan harbiy qismda harbiy xizmatchilar va oila a'zolarining sog'lig'ini mustahkamlash, kasalliklarni erta aniqlash va profilaktika choralarini kuchaytirish maqsadida o'tkazilgan chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik ham bu boradagi ijobiy ishlardan biri sifatida ahamiyatga molikdir.

Tadbir doirasida harbiy xizmatchilar va oila a'zolarini ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularga malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, sog'lig'iga oid muammolar bo'yicha zarur tibbiy maslahatlar berish maqsadida eng tajribali bolalar va kattalar shifokorlari jalb etildi. Mutaxassislar tomonidan har bir ishtirokchining sog'lig'i individual tarzda

ko'rikdan o'tkazilib, tegishli xulosa va tavsiyalar berildi.

Shuningdek, tibbiy ko'rikka tashrif buyurgan fuqarolar qon tahlili laboratoriyasi, ultratovush tekshiruvi (UZI) hamda elektrokardiogramma (EKG) kabi zamonaviy tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu esa tashxislarni aniq va tezkor qo'yishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularga malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, kasalliklarni erta aniqlash va tibbiy maslahatlar berish maqsadida tashkil etilgan mazkur tadbirda eng malakali shifokorlar ishtirok etdi.

TOQQQ matbuot xizmati

Ma'naviyat sarchashmasi

KITOB – TAFAKKUR CHIROG'I



Kitob – qalb nuri, tafakkur tarbiyasi, ma'rifat yo'ldoshi. Inson ongi va qalbini kamolga yetaklaydigan, fikrni teranlashtirib, dunyoqarashni kengaytiradigan eng ishonchli manba sanaladi.

Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litseyida o'quvchi-yoshlarda kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish, mustaqil fikrlash, tezkor tahlil qilish, adabiy bilim va nutq madaniyatini rivojlantirish maqsadida "Kitob – tafakkur chirog'i" deb nomlangan kitobxonlik bellashuvi o'tkazildi.

Bellashuvda litseyning 1-bosqichida tahsil olayotgan o'quvchilarning bilim, zehn va tafakkur salohiyati sinovdan o'tkazildi. Ularga adabiyot, tarix va o'qigan badiiy asarlari bo'yicha qiziqarli savollar berildi. Ishtirokchilarning nafaqat savollarga aniq va mantiqli javob berishi, balki o'z fikrini ravon, asosli tarzda bayon qilishi baholandi.

Guruhlar o'rtasidagi bellashuv jarayoni, ayniqsa qizg'in va mazmunli kechdi. O'quvchilar o'qigan asarlari asosida qahramonlar xarakteri, voqea-hodisalarning mohiyati, asarda ilgari surilgan g'oya va xulosalar xususida

fikr almashdi. Zamonaviy yoshlar dunyoqarashida kitobning o'rni, mutolaaning hayotiy qarorlar qabul qilishdagi ahamiyati haqida bildirilgan mulohazalar tadbirga alohida mazmun bag'ishladi.

Shuningdek, kitob o'qishning inson hayotidagi o'rni va foydasini yorituvchi sahna ko'rinishlari, badiiy chiqishlar hamda videoroliklar namoyishi ham tomoshabinlarda katta taassurot qoldirdi va bu kitobxonlik kechasiga o'zgacha shukuh bag'ishladi.

Bellashuv natijalariga ko'ra, ballari teng kelib qolgan guruhlar o'rtasida "Blits so'rov" usuli orqali g'oliblar aniqlandi. Shuningdek, faol ishtirok etgan guruhlar "Eng zukko", "Eng mulohazali" va "Eng faol kitobxon guruh" nominatsiyalari bo'yicha taqdirlandi. G'olib jamoalar litsey rahbariyati tomonidan faxriy yorliq va esdalik sovg'alar bilan mukofotlandi.

Shuningdek, tadbir so'ngida axborot-resurs markazi xodimlari tomonidan o'qituvchi va o'quvchilarga esdalik sifatida qiziqarli hamda mazmunli kitoblarni sovg'a qilindi.

Muhimi, ushbu tadbir yoshlarning kitobga bo'lgan qiziqishini oshiruvchi, ularni ma'rifat va kamolat sari yetaklovchi muhim tashabbus sifatida o'z ahamiyatini namoyon etdi.

Baxtigul ALIMQULOVA,
Jaloliddin Manguberdi nomidagi
harbiy akademik litseyi axborot-
resurs markazi kutubxonachisi

Islahotlar samarasi



ZAMONAVIY AVTODROM

FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

"Vatanparvar" tashkiloti Qoraqalpog'iston Respublikasi kengashi tasarrufidagi Ellikqal'a tumani o'quv sport-texnika markazining zamonaviy talablarga mos ravishda bunyod etilgan o'quv avtodromi foydalanishga topshirildi.



Tantanali ochilish marosimida "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi rahbariyati, Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'mondonligi, tuman hokimligi mutasaddilari, yoshlar va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

"Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov o'z nutqida mazkur avtodrom yaqinlashib kelayotgan Yangi yil

Marosimda Ellikqal'a, Beruniy, To'rtko'l, Amudaryo, Qo'ng'irot, Xo'jayli tumanlarining o'quv sport-texnika markazlariga yangi xarid qilingan "Chevrolet Onix" yengil va "Foton" yuk avtomobillarining topshirilishi tadbirga yanada ko'tarinki ruh bag'ishladi. Endilikda ushbu o'quv avtomobillaridan avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash kurslarida "B", "BC" va "C" toifalari bo'yicha o'qiyotgan fuqarolar amaliy mashg'ulotlarda foydalanadi.

bayrami munosabati bilan Ellikqal'a aholisi uchun tashkilotning tuhfasini ekanini bildirdi va tumanda istiqomat qilayotgan fuqarolar endilikda belgilangan standartlarga muvofiq, qurib bitkazilgan avtodromdan foydalanish imkoniyatiga to'liq ega ekanini ta'kidladi.

So'zga chiqqanlar yig'ilganlarni ushbu voqelik bilan muborakbod etib, haydovchilik kasbini o'rganishga ahd qilgan ellikqal'aliklarga omad tiladi.

Tadbir davomida tashkilot tizimida "Avtokross", "Motokross", "Karting", "Duatlon", "Pnevmatik quroldan o'q otish", "Aviamodel", "Raketamodel", "Kemamodel" bo'yicha tashkil etilgan sport seksiyalarining ko'rgazmalari yoshlarda katta taassurot qoldirdi.

O'zbekiston Respublikasi
mudofaasiga ko'maklashuvchi
"Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

O'TKIR RESPIRATOR KASALLIKLAR: O'ZIMIZNI QANDAY ASRAYMIZ!



O'tkir respirator kasalliklar o'tkir kechadigan, og'ir asoratlari bilan salomatlikka jiddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan, ayniqsa keng tarqalganda qo'shinlarning jangovor shayligiga salbiy ta'sir etadigan, klinik ko'rinishlarining turli bo'lishi bilan ajralib turadigan kasallikdir.

Hammamizga ma'lumki, ob-havoning sovishi natijasida deyarli barchamizda shamollash yoki o'tkir respirator infeksiya belgilari kuzatiladi. O'zimizda kuzatilgan ushbu belgilarni gripp bo'libman, degan mavhum tushuncha bilan ifodalaymiz, aslida kasallikni mikroorganizmlarning 100 dan ortiq turi keltirib chiqarishi mumkin.

Kasalliklar juda keng tarqalgan, ma'lumotlarga ko'ra, barcha infeksiyon va noinfeksiyon kasallanishlarni jamlaganda o'tkir respirator kasalliklar

bilan kasallanish ko'rsatkichi ulardan yuqori ekanini aniqlangan. Keltirib chiqaruvchi mikroorganizmlarning ko'pligi sababli har bir odam bir yilda kamida 3 marotaba shu kasallik bilan kasallanishi mumkin.

O'tkir respirator kasalliklari tarkibiga nafas olish yo'llari patogen mikroorganizmlarining turli vakillari chaqiradigan yuqumli kasalliklar kiradi. Ushbu kasalliklarning asosiy qo'zg'atuvchisi viruslar hisoblanadigan, ularni bakteriyalar, mikoplazmalar va boshqa mikroorganizmlar ham chaqirishi mumkin. Klinik jihatdan o'xshashliklari va qo'zg'atuvchilarning asosiy joylashgan joyi nafas yo'llari ekaniga asosan, ushbu kasalliklar bir guruhga jamlangan.

Mavsumiyliigi turli omillarning birgalikdagi ta'siri natijasida ro'y beradi. Bunday omillarga havo haroratining keskin o'zgarishi natijasida tananing tez qizib ketishi va terlash, tez sovib ketishi, harbiy jamoalarda harbiy xizmatchilarning yotoqxonalarida zich joylashtirilishi bilan bog'liq kasallanishning mavsumiy o'sishi alohida ahamiyatga ega. Kasallik qo'zg'atuvchilarning faollashuviga odamning stress holatiga tushishi ham sabab bo'ladi. Kasallik keltirib

chiqaruvchi omillarga sovqotish, yuqumli kasalliklar bilan kasallanish va dori-darmonlardan noto'g'ri foydalanish kabilar kiradi.

Kasallik belgilari – ko'pincha asta-sekin boshlanadi, tana harorati 38,0°C atrofida, umumiy holsizlik, bosh og'rig'i, boshida quruq yo'tal, keyinchalik balg'am ajrala boshlaydi, mushaklar va bo'g'imlar og'riydi, burundan suv oqishi, burun bitishi, tomoqda og'riq, qizarish, qo'shimcha infeksiyalar qo'shilmasa, ko'zda qizarish kam hollardagina yuzaga keladi.

Asoratlari – o'tkir zotiljam, quloq, ko'z va eshitish asab tolalarining, bronxlarning, bo'g'imlar, yurak to'qimalari, buyraklar yallig'lanishi, meningit, infeksiyon-toksik shok yuzaga kelishi mumkin.

Masofa saqlash – bemorlar bilan muloqotda bo'lmaslik, zaruratga ko'ra, bemorlar bilan muloqotda bo'lganda, albatta niqob taqish, odamlar bilan muloqotda oraliq masofa saqlash (1,5–2 metr), aksirganda, yo'talganda og'izni bir martalik salfetka yoki ro'molcha bilan yopish.

Qo'l gigiyenasi – ko'chadan qaytgandan keyin, ovqatlanishdan oldin, hojatxonadan chiqqandan keyin hamda qo'llar ifloslanganda ularni yuvish, qo'l bilan ko'z, og'iz va

burun shilliq qavatlariga tegmaslik, qo'l bilan ko'p muloqot qilinadigan buyumlarni muntazam dezinfeksiya qilish.

Sog'lom turmush tarzi – chekish va spirtli ichimliklar iste'mol qilmaslik, ovqatlanishda ko'katlar, meva, sabzavot mahsulotlarini iste'mol qilish.

Tozalik va shamollatish – yashash, xizmat va boshqa yordamchi xonalarni o'z vaqtida tozalash, tez-tez shamollatish.

To'g'ri kiyinish – sovuq mavsumda issiq, havo o'tkazuvchi kiyimlarni kiyish.

Grippga qarshi emlash himoyalashning eng samarali usuli hisoblanib, har yili mavsumiy grippga qarshi emlanish kasallanish xavfini 2-3 barobarga, asoratsiz o'tishini 70 foizga, o'lim xavfini 90 foizga kamaytiradi. Gripp virusining o'zgaruvchanligini hisobga olib, har yili sentabr-noyabr oylarida grippga qarshi vaksina olish tavsiya etiladi.

Unutmang! Hech qachon mustaqil davolanmang, mutaxassis ko'rigida bo'ling, shifokor tavsiyasiga ko'ra davolaning!

**Tibbiy xizmat polkovnigi
J. QUTLIYEV,
Harbiy tibbiyot instituti
kafedra boshlig'i**

Yong'in xavfsizligi oyligi

Ayni paytda mamlakatimizning barcha go'shalarida, shu qatorda harbiy obyekt va harbiy shaharchalarda yong'in xavfsizligi tadbirlarini kuchaytirish maqsadida joriy yilning 1-dekabridan 30-dekabrigacha "Yong'in xavfsizligi oyligi" o'tkazilmoqda.

YONG'IN XAVFSIZLIGINI SAQLASH — MUHIM VAZIFA

Bu oylik yana bir ajoyib tadbir – Yangi yil bayramiga ulanib ketadi. Ushbu bayramni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va yong'in xavfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishimiz kerak.

Unga ko'ra, fuqarolar bayram tadbirlari va boshqa gavjum bo'ladigan marosimlarni o'tkazish vaqtida quyidagi yong'in xavfsizligi talablarini bajarishi shart:

- archa mustahkam taglikka o'rnatilishi va shoxlari devor va shiftlarga tegmasligi;
- xona elektr yorug'ligi bilan ta'minlanmagan bo'lsa, tantanalarni kunning yorug' vaqtida o'tkazish;
- illyuminatsiya elektr asbob-uskunalarini elektr uskunalarini o'rnatish qoidalarini (PUE) talablariga mos holda bajarilishi;
- elektr yoritish manbaining kuchlanishini kamaytirish transformatorisiz foydalanilganda, archaga faqat 12 Vt.li girlyand chiroqlarni

ketma-ket ulash (bunda chiroqlar quvvati 25 Vt.dan oshmasligi kerak);

bolalarni marosimlarni o'tkazish joylarida yolg'iz qoldirmaslik va ularning ochiq olov bilan hamda elektr uskunalarini bilan o'ynashiga ruxsat bermaslik.

Archa bayrami va boshqa aholi gavjum marosimlarni o'tkazish vaqtida quyidagilar taqiqlanadi:

- sham, bengal chirog'i, mushakbozlik va boshqa yong'in chiqishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan narsalardan foydalanish;
- archaga agarda maxsus suyuqlik bilan ishlov berilmagan bo'lsa, doka, paxta, qog'oz va shunga o'xshash boshqa materiallar bilan bezash;
- bolalarni tez yonuvchi materiallardan tayyorlangan kiyimlar bilan kiyintirish;

● bo'yoqlash, ochiq olovdan foydalanish va shunga o'xshash yong'in yoki portlash xavfi bor ishlarni amalga oshirish;

● xonani qorong'i qilish uchun derazalarga soyabonlar o'rnatish;

● qatorlar oralig'idagi o'tish joylarini toraytirish, u yerlarga qo'shimcha stul o'rnatish;

● tomosha vaqtida elektr yorug'ligini batamom o'chirish;

● marosim o'tkaziladigan xonalarni belgilangan me'yordan ko'p odamlar bilan to'ldirish.

Ta'kidlash joizki, tadbirlar o'tkazilayotgan vaqtda sahna va tomosha (zal) xonalarida javobgar shaxslar, shtatdan tashqari, yong'in o'chirish guruhlarini tomonidan navbatchilik uyushtirish kerak.



Agar yong'in chiqqudek bo'lsa, qutqaruv ishlarini olib borib, 112 va 101 raqamiga qo'ng'iroq qiling va darhol birlamchi yong'in o'chirish vositalari bilan yong'inni o'chirishni boshlang!

Aziz harbiylar va Qurolli Kuchlar xizmatchilari!

Yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish orqali Siz, yong'inning kelib chiqishini bartaraf etgan, davlat va shaxsiy mol-mulkingizni, yaqinlaringizni, qo'ni-qo'shnilaringizni hamda farzandlaringiz xavfsizligini ta'minlagan bo'lasiz.

**Kapitan Eldor RAVSHANOV,
Toshkent garnizoni yong'in nazorati
inspeksiya boshlig'ining o'rinbosari**

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

Bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlodni ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning ma'naviy yuksalishi va barkamolligiga katta ahamiyat berilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Navoiy viloyati kengashi tasarrufidagi Zarafshon shahri o'quv sport-texnika markazi nodavlat ta'lim muassasasi jamoasi tomonidan bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.



TO'GARAKLARGA

qiziqish ortmoqda



Jumladan, birgina yakunlanayotgan 2025-yilda ham shahar yoshlarini ijtimoiy foydali hamda ommaviy vatanparvarlik ishlariga jalb etish maqsadida bu yo'nalishda turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, uchrashuvlar va davra suhbatlari, sport musobaqalari tashkil etildi.

– Tashkilotimizda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bir qatorda, ularning sog‘lom shakllanishiga alohida e‘tibor qaratilmoqda, – deydi shahar O‘STM NTM direktori Zafarjon Xolbo‘tayev. – Shuning uchun markazda “Havo militg‘idan o‘q otish”, “Yozgi biatlon” kabi sportning texnik va amaliy turlarida seksiya hamda to‘garaklar ishlab turibdi. Buning natijasida tizim tashkilotlari orasida o‘tkazilayotgan turli yo‘nalishdagi musobaqalarda zarafshonliklar muvaffaqiyat qozonib, faxrli o‘rinlarni egallamoqda. Birgina markaz a‘zosi bo‘lgan sportchimiz Nasiba Karimova Namangan shahrida o‘tkazilgan o‘q otish musobaqasida faxrli o‘rinni egallab, viloyatimiz sharafiga munosib ravishda himoya qildi.

Ayni paytda bevosita shahar O'STM NTM ma'muriyati tashabbusi bilan yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, harbiy-vatanparvarlik

g'oyalarni targ'ib qilish maqsadida Zarafshon shahridagi turli tashkilot va muassasalar o'rtasida sport musobaqalari muntazam ravishda o'tkazilyapti. O'z navbatida, tashkilotda faoliyat ko'rsatayotgan sport seksiya va to'garaklariga ishtirokchilarning qiziqishi ortib bormoqda. Shu bois markazda sportni ommalashtirish maqsadida turli sport tadbirlari tashkil etilyapti.

Xususan, yaqinda “Vatanparvar” tashkiloti tashkil etilganining 34 yilligi munosabati bilan Zarafshon shahri hokimligi, Yoshlar ishlari agentligi hamda mahallalar bilan hamkorlikda yoshlar ishtirokida havo miltigʻidan oʻq otish boʻyicha musobaqa tashkil etildi. Doʻstona ruhda oʻtkazilgan musobaqa barcha ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi. Unda gʻolib boʻlgan qatnashchilarga tadbir tashkilotchilari tomonidan qimmatbaho va esdalik sovgʻalar hamda faxriy yorliqlar taqdim etildi. Shuningdek, ishtirokchilar oʻquv sport-texnika markazida yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdi.

Bundan tashqari, tashkilot faoliyatining yana bir muhim yo'nalishlaridan biri xalq xo'jaligining turli tarmoqlari uchun malakali haydovchilar tayyorlab berishdir. Ta'kidlash joizki, tashkilotda yakunlanayotgan yilda ommaviy kasb mutaxassislarini tayyorlash va qayta tayyorlash borasida ham salmoqli natijalarga erishildi. Belgilangan reja asosida "A", "B", "BC", "BE", "CE" hamda "D" toifali haydovchilar tayyorlandi.

Bundan tashqari, joylardagi boshlang'ich tashkilotlarda mardlik va jasorat darslari, harbiy xizmatchilar, faxriylarning yoshlar bilan uchrashuvlari tashkil etilmoqda. Chunonchi, Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan o'tkaziladigan "Vatanparvarlik oyligi" doirasidagi ma'naviy-ma'rifiy tadbir va ochiq eshiklar kuni shunday tadbirlar sirasidan.

Akbar ALLAMURODOV

REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA

Yangi O'zbekiston bunyodkori

HAQ SO'Z

yo'lidagi jurnalistika

Taniqli olim Karim Normatovning “Yangi O'zbekiston bunyodkori” deb nomlangan ilmiy-publitsistik esse-monografiyasi kitob holida chop etildi. Mazkur to'plam Yangi O'zbekiston taraqqiyoti, davlat va jamiyat hayotida jurnalistikaning o'рни, mas'uliyati va bunyodkorlik solnomasiga bag'ishlangan muhim tahliliy manba sifatida e'tiborga loyiq.



Kitobda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan milliy kadrlar tayyorlash, davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, ochiqlik va oshkoralikni ta'minlash borasida olib borilayotgan izchil siyosatning mazmun-mohiyati atroflicha yoritilgan. Ayniqsa, bu siyosatning jadid bobolarimiz qoldirgan ma'rifiy meros, ularning millat taraqqiyoti, ilm-fan va matbuot haqidagi ilg'or g'oyalari bilan uyg'unligi kitobning g'oyaviy asosini tashkil etadi.

Muallif so'nggi o'n yillikda milliy jurnalistika rivojini chuqur tahlil qilib, uni shartli ravishda ikki bosqichga ajratadi. Birinchi bosqich 2016–2020-yillarni qamrab olib, jurnalistika sohasida tashkiliy-huquqiy va konseptual islohotlar amalga oshirilgan davr sifatida tavsiflanadi. Ikkinchi bosqich esa 2021–2025-yillarga to'g'ri kelib, milliy media makonning faol rivojlanishi, tahlil, ochiq

tanqid va zamonaviy axborot almashinuvining kengayishi masalalarini o'z ichiga oladi.

Kitob mazmunan bir-birini to'ldiruvchi ikki bobdan iborat. “Haq so'z qudrati har qanday atomdan kuchli, ta'sirli” deb nomlangan birinchi bobda Yangi O'zbekiston sharoitida jurnalist oldiga qo'yilgan vazifalar, davlat va jamiyatning axborot siyosati, so'z erkinligi va mas'uliyat o'rtasidagi muvozanat masalalari yoritilgan. Jurnalistning haqiqatni aytish, xolis va ishonchli axborot yetkazish orqali fuqarolik jamiyatini mustahkamlashdagi o'рни alohida tahlil qilinadi. Milliy kontent masalasi esa hayotimizning ko'zgusi sifatida qaralib, uning sifat va mazmun jihatidan boyib borishi muhim omil sifatida ko'rsatiladi.

Ikkinchi bob – “Jurnalist – Vatan himoyachisi, umrini bunyodkorlik ishiga bag'ishlaydi” deb nomlanib, unda milliy jurnalistikamizning taniqli vakillari, olimlar, davlat va

jamoat arboblarning sohaning bugungi va kelajagi haqidagi fikrlari jamlangan. Bu bobda keltirilgan mulohazalar va iqtiboslar yosh jurnalistlar uchun o'ziga xos ma'naviy-ma'rifiy xrestomatiya vazifasini o'taydi. Shuningdek, mediata'lim, jurnalistik savodxonlik va kasbiy mas'uliyat masalalari ham atroflicha yoritilgan.

Asarni mutolaa qilar ekansiz, erkin fikrlovchi jurnalist, avvalo, tahlil qiluvchi, tanqidiy yondashuvga ega bo'lgan, oxir-oqibat jamiyatda bunyodkor g'oyalarni ilgari surgan shaxsga aylanishi kerakligi haqidagi g'oya izchil ravishda o'quvchiga yetkaziladi. Amaliyotchi jurnalistlarning ijodiy tajribasiga tayanilgan tahlillar esa kitobning ruhini yanada kuchaytiradi.

Bugungi kunda jurnalistlar, ayniqsa yosh qalamkashlar uchun ana shunday tahliliy va g'oyaviy jihatdan puxta asarlarning yozilayotgani juda muhim. Chunki bu kabi kitoblar nafaqat kasbiy mahoratni

oshiradi, balki jurnalistikaga bo'lgan mas'uliyatni, Vatan va jamiyat oldidagi burchni yanada chuqur anglashga xizmat qiladi.

“Yangi O'zbekiston bunyodkori” ana shu ma'noda bugungi milliy jurnalistika qiyofasini anglash, erishilgan yutuqlarni baholash va istiqboldagi vazifalarni belgilashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

So'zimizga alloma yozuvchi Abdulla Qodiriyning ushbu fikrlari bilan xotima yasasak:

– Yaxshi bilish kerakki, qalam – o'qlog'i va matbuot –

ketmon bozori emas. Yo'sinsiz ravishda xotirga kelgan har bir so'zdan jumlar to'qimoq fazilat emasdir. So'z qolip, fikr uning ichiga quyilgan g'isht bo'lsin. Ko'pchilik xumdonidan pishib chiqqach, yangi hayot ayvoniga asos bo'lib yetsin!

Zamon o'zgaradir, ishlar yangaradir... Matbuot sahifasi va adabiyot sahnalarigina emas, hayotning har bir sohasiga churik-choriq, latta-putta yozg'onlar rahmsiz sur'atda supurilib, aksar kunlari juvoz haydashga qoladilar.

TAHRIRIYAT

@Vatanparvargazetasi_bot
“Vatanparvar” birlashgan tahririyati
bilan bog'lanish uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA

VATANPARVAR



MUASSIS
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
podpolkovnik Timur Narziyev
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi: katta leytenant Dilshod Ro'ziqulov
Sahifalovchi: Tohirjon Turg'unboyev
Musahhih: Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: V-6059
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 31 997 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “O'zbekiston” NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi. Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqqa boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

“O'zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi

www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@uamail.uz

mudofaavazirligi

mudofaavazirligi

www.youtube.com/c/UzArmiya